



**XALQARO TADQIQOTLARDA  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING  
O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
TA‘LIM SIFATINI NAZORAT QILISH  
DAVLAT INSPEKSIYASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

TA‘LIM SIFATINI BAHOLASH BO‘YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI  
AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

# XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH

*(Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va  
soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma)*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK kompaniyasi  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2019

UO'K 37.014.6-028:373.3:001.8(100)(072)

KBK 74.202

X – 22

X – 22 **Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash** (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

**Fizika-matematika fanlari doktori, professor  
U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida**

***Tuzuvchilar:***

- A. Ismailov** – Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori – PIRLS tadqiqoti milliy koordinatori;
- D. Norboyeva** – Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori o'rinbosari;
- K. Kucharova** – Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 301-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi;
- Z. Kosimova** – Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bosh mutaxassisi;
- N. Aminova** – Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi mutaxassisi.

***Taqrizchilar:***

- M. Baybayeva** – A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi;
- D. Manapova** – Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi 286-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi;
- M. Xolboyeva** – Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 300-sonli davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Mazkur metodik qo'llanma Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievement – IEA) tomonidan o'tkaziladigan PIRLS (Progress in international reading literacy study) tadqiqoti doirasida foydalanilgan materiallar asosida tuzib chiqilgan.

Unda PIRLS xalqaro tadqiqotining mazmun-mohiyati, o'qish savodxonligini baholash yo'nalishiga oid asosiy tushunchalarning ta'rifi, topshiriqlar, ularning tavsifi va yechish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Qo'llanma umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalarining tinglovchilari, fan metodistlari hamda soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

*Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Ilmiy kengashining 2019-yil 15-oktabrdagi yig'ilishining (2-son bayonnomasi) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

*Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan Jahon banki hamkorligidagi GPE TF018066 «Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish» loyihasi mablag'lari hisobidan chop etildi.*

ISBN 978-9943-5991-2-3

ISBN 978-9943-5991-2-3

UO'K 37.014.6-028:373.3:001.8

KBK 74.202

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2019.

# MUNDARIJA

KIRISH	4
1. PIRLS tadqiqoti haqida umumiy ma'lumot	8
1.2. PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligi	10
2. PIRLS tadqiqotlarida foydalanilgan matn va topshiriqlar	16
Badiiy matnlar	
2.1. G'aroyib tun	16
2.2. Dushman pirogi	26
2.3. Tomdagi gullar	37
2.4. Uch, burgut, uchaqol!	51
Axborot matnlar	
2.5. Leonardo da Vinchi	61
2.6. Ulkan tish siri	74
<i>Foydalanilgan va tavsiya qilinadigan adabiyotlar hamda elektron resurslar</i>	90



## KIRISH

*«Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...»*

***Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti***

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi.

1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

IEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg'unlik asosida baholashni o'z ichiga oladi, bu esa dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi.

Ushbu dasturning ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'ladi.

PIRLS – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta‘lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma‘lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Shuningdek, PIRLS, yosh o‘quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta‘lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya‘ni badiiy tajriba orttirish, ma‘lumot olish va undan foydalanish ko‘nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o‘tkaziladigan tadqiqotda o‘quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o‘rinlidir. Raqamli formatga o‘tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o‘qishni kompyuterda baholash kabi o‘zgarishlar ham ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, konsepsiya doirasida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlarini joriy etish,

o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo'lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish o'ziga xos o'rin tutadi. Shunday ekan, ta'lim sifatini baholash sohasidagi yangi xalqaro tadqiqot haqida xalq ta'limi tizimi xodimlari, o'qituvchilar hamda ushbu sohaga qiziquvchilar uchun ma'lumotlar yetkazib berish maqsadida «Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash» nomli metodik qo'llanma ishlab chiqildi. Mazkur qo'llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, PIRLS tadqiqotining topshiriqlaridan, ya'ni matnlar va savollaridan bir nechta namunalar hamda ularning baholash mezonlari keltirilgan.





## 1. PIRLS TADQIQOTI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA–International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotlar 2001-yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.


2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida ePIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li hamda maktab fanlari doirasida izlanishlar olib borish uchun markaziy manba hisoblanadi.

2021-yilda o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida dasturning birinchi marta raqamli formatga (digital PIRLS, lekin shu bilan birga an'anaviy qog'oz format bo'ladi) o'tishi hamda ePIRLS, 2016-yilda boshlangan internet muhitida boshqariladigan onlayn o'qishni kompyuterda baholash ko'zda tutilmoqda.

PIRLS dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001-yilda 35 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2006-yilda 40 ta, 2011-yilda 45 ta, 2016-yilda 50 ta mamlakat va navbatdagi 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda 60 ta mamlakatning ishtirok etishi rejalashtirilgan.

2016-yilda tadqiqotga Rossiya Federatsiyasining 42 ta hududidan 206 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 4577 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi dunyo bo'yicha birinchi o'rinni egallagan.

O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta'sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi.





## 1.2. PIRLS TADQIQOTIDA O‘QISH SAVODXONLIGI

O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

Ushbu nuqtayi nazar o‘quvchilarning o‘qishdan olingan ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

PIRLSning o‘qishdagi yutuqlarni baholash doiralari IEA tomonidan 1991-yilda o‘qish savodxonligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan foydalangan holda, ilk marotaba, 2001-yildagi tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan.

Shundan buyon PIRLSning baholash doiralari tadqiqotning har bir davri uchun, shu jumladan, 2021-yildagi tadqiqot davri uchun ham yangilandi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O‘qish savodxonligining bu ko‘rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko‘plab o‘qish nazariyalarini aks ettiradi. O‘quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o‘quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o‘quvchi ma’noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» – yaratmoq deyiladi). O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada

yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.



## PIRLS VA ePIRLSda har bir o‘qish maqsadlari va tushunish jarayonlarining ulushi

<b>O‘QISH SAVODXONLIGINING MAQSADI</b>	PIRLS	ePIRLS
Badiiy tajriba orttirish	50%	0%
Axborot olish va undan foydalanish	50%	100%
<b>TUSHUNISH JARAYONI</b>	PIRLS	ePIRLS
Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni topish	20%	20%
To‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish	30%	30%
G‘oyalar va axborotni talqin qilish hamda uyg‘unlashtirish	30%	30%
Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish	20%	20%

Butun dunyo bo‘ylab o‘qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o‘qishlari bilan bevosita bog‘liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o‘qishni yoki ta‘lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina yosh o‘quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to‘plamlari yoki rasmlil kitoblar) yoki o‘quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma‘lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma‘lumotli matnlardan iborat bo‘ladi.

Yosh o‘quvchi uchun o‘qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o‘qish turini baholashda matnlarni teng bo‘lishni asosiy maqsad qilib olgan.

### **Badiiy tajriba orttirish.**

Adabiyotni tushunish va baholash uchun har bir o‘quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi kerak. Yosh o‘quvchilar uchun adabiyot hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg‘ularni o‘rganish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o‘quvchilarga haqiqiy hayotni

yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi.

PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir.

### **Axborot olish va undan foydalanish.**

Axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir, shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi. Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishontirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin.

Yosh o'quvchilar ilmiy, tarixiy, geografik yoki ijtimoiy, shu jumladan, bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan, turli shakldagi axborot matnlarini o'qishlari mumkin.

### **Tushunish jarayonlari.**

PIRLS, odatda, 4-sinf o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta tushunish jarayonini baholaydi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

PIRLS va ePIRLSda har bir matn parchasi (yoki parchalari) yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi.

O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va

axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda konkret yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalari bilan bog'lashlari mumkin.

To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

**Matnni baholash va tanqidiy tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Insonlarning o'ylari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
- Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;
- Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

**Matn va mazmunga oid birliklarni baholash va tanqidiy tahlil qilish.**

Matn mazmuni o'quvchining shaxsiy fikridan kelib chiqib, xolislik bilan baholanishi va tanqid qilinishi mumkin. Bu jarayon o'quvchidan xolis baho berish, rad etish, ma'qullash, matn mazmuniga nisbatan be-taraflikni bildirish kabilarni talab qiladi. Masalan, o'quvchi matnda keltirilgan fikrlarni tasdiqlashi, e'tiroz bildirishi yoki boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan matnda berilgan g'oyalarni taqqoslashi mumkin.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlarning xususiyatlari. Matnlar PIRLS das-

turida murakkabligiga qarab, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, ePIRLSda esa, taxminan, 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. PIRLS matnlari uchun aniqlik va izchillik muhim mezon hisoblanadi.

**PIRLS tadqiqotida tushunib o'qishni baholashga yo'naltirilgan topshiriqlar quyidagi foizlarda taqsimlanadi:**

- Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topish 20%;
- To'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish 30%;
- G'oyalar va axborotni umumlashtirish, talqin qilish va uyg'unlashtirish 30%;
- Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish 20%.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan.

**Uzunligi:** 1000 ta so'z-gacha.


**Mavzu:** Badiiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

**Til:** 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi

muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid so'z yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.


**Mazmuni:** matnning mazmuni 9–10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmasligi lozim.

**Bog'liqlik va ketma-ketlik:** sujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Axborot matnda matnning tuzilishi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir.





## 2. PIRLS TADQIQOTLARIDA FOYDALANILGAN MATN VA TOPSHIRIQLAR



# G'AROYIB YUN

(Franz Hohler)

**A**

nina o'n yoshda bo'lgani uchun hatto uyqusiragan holatida ham o'z xonasidan yuvinishxonasiga bemaol bora olar edi. Xonasining eshigi, odatda, qiya ochiq turar, lampa esa telefon turadigan joydan yuvinishxonasiga boriladigan yo'lakni yetarlicha yoritib turar edi.

Bir kun kechasi Anina telefon turadigan joy oldidan yuvinishxonasiga o'tayotib, qandaydir shitirlagan tovushni eshitdi. Biroq uyqusiragani uchun bu shitirlashga unchalik ahamiyat bermadi. Xuddiki, bu tovush

uzoqdan kelayotganday tuyuldi. U xonasiga qaytayotgandagina shitir-lashning qayerdan kelayotganini payqadi. Telefon turgan stol tagi-da yotgan bir uyum eski jurnal, gazetalar siljiyotgan va bu tovush aynan o'sha joydan kelayotgan edi. Birdan gazeta va jurnallar uyumi o'ngga, chapga, to'g'riga, ortga siljib, har tomonga sochila boshladi.

Anina ko'zlariga ishona olmadi, chunki telefon stolining tagidan qichqiriqli ovoz bilan timsoh sudralib chiqib kelayotgandek ko'rindi. Anina turgan joyida qotib qoldi.

Timsohning gazeta uyumi ichidan chiqib, atrofni sekin tomo-sha qilishini ko'rgan Aninaning ko'zlari hayratdan katta-katta ochilib ketdi. Timsohning go'yo endigina daryodan chiqqandek shalabbo tanasidan suv tomib turardi. Timsoh gilamning qayerini bossa, o'sha joyi ho'l bo'lar edi.

Timsoh boshini orqaga burganda qattiq shitirlab ketdi. Yirtqichning dahshatli, uzun tishlarini ko'rib, Aninaning nafasi ichiga tushib ketdi. U dumi bilan sekin ortga va oldinga harakatlanar edi. Anina hayvonot olami haqidagi jurnaldan timsohning dumi bilan o'zini dushmandan qanday himoyalashi yoki unga hamla qilishini o'qigan edi.



Uning nazari gazeta va jurnallar uyumidan sochilib, oyoqlari ostida yotgan hayvonot olami haqidagi jurnalning oxirgi soniga tushdi. U yanada qoʻrqib ketdi. Avval jurnalning muqovasida katta timsohning rasmi daryo boʻyida tasvirlangan edi. Endi esa muqovadagi daryo boʻyi boʻsh qolgan edi.

Anina egilib, jurnalni oldi. Oʻsha paytda timsoh dumi bilan qattiq urib, kungaboqar gullari turgan guldonni yerga tushirib yubordi. Guldon sinib, kungaboqar hamma joyga sochilib ketdi.

Anina bir sakrashda oʻz xonasiga yetib olib, eshikni yopdi. Yotogʻini siljitib, uni eshikka tirab qoʻydi. Uni timsohdan himoya qilishi kerak boʻlgan toʻsiqni hosil qildi va shundan keyingina yengil nafas oldi.

Keyin u oʻylab qoldi: «Agar timsoh shunchaki och boʻlsa-chi? Balki timsohni ketishga majbur qilish uchun biror yemish berish kerakdir?»

Anina yana hayvonot olami haqidagi jurnaliga qaradi. Agar timsoh rasmdan tashqariga chiqqan boʻlsa, demak, boshqa hayvonlar ham chiqa olishi mumkin ekan-da? Anina tezda jurnalni varaqladi va changalzor botqoqligidagi flamingolarda toʻxtadi. «Bu oʻsha, eng keraklisi», deb oʻyladi u. Flamingo timsoh uchun bayram tortining oʻrnini bosa oladigandek koʻrinardi.

Toʻsatdan nimadir taraqlab ketdi, timsoh dumi bilan eshikni urib, uni teshib qoʻygan edi.

Anina tezda flamingo rasmini eshikning teshigiga qoʻydi-da, bor ovozi bilan «Botqoqdan chiq! Kisht-kisht!» deb qichqirdi.

Shundan soʻng jurnalni teshikdan yoʻlakka uloqtirdi va chapak chalib chinqirdi. U nimadir sodir boʻlishiga zoʻrgʻa ishongan edi. Kutilmaganda, yoʻlak qanotlarini yoyib olib, uzun va ozgʻin oyoqlari bilan u yoqdan bu yoqqa qiyqirib yugurayotgan flamingolarga toʻlib ketdi. Anina qushlardan birining kungaboqarni choʻqiyotganligiga va boshqasi esa tumshugʻi bilan onasining shlapasini tortayotganligiga koʻzi tushdi. Shuningdek, u yana bir flamingo timsohning ogʻziga kirib ketganini, timsoh uni ikki yamlab yutib yuborganini va oʻsha zahoti kungaboqarni tumshugʻida ushlab turgan flamingoni ham tutib olganini koʻrdi.

Ikkita flamingo timsoh uchun yetarli boʻldi, shekilli, u xotirjam

yo‘lakning o‘rtasiga cho‘zildi. U ko‘zlarini yumdi-yu, ortiqcha harakatlanmadi. Anina eshikni sekin ochib, lip etib yo‘lakka chiqib oldi. U rasmsiz jurnal muqovasini timsohning burni ostiga qo‘ydi.



Iltimos, – shivirladi u, – «uyingga qaytib keta qol». Keyin u yotoqxona-siga qaytib, eshikning teshigidan timsohning yana jurnal muqova-siga kirganini ko‘rdi.

Shundan so‘ng Anina ehtiyotkorlik bilan flamingolar divan, kreslolar atrofida to‘dalashgan, televizor ustiga chiqib olgan mehmonxonaga kirdi. Anina jurnalning bo‘sh, rasmsiz sahifasini ochdi.

«Rahmat sizga, rahmat katta, o‘z botqog‘ingizga qaytishingiz mumkin», – dedi.

Ertalab ota-onasiga poldagi katta-katta, ho‘l dog‘lar qayerdan kelganini, nima uchun eshik singanini tushuntirish Aninaga juda qiyin bo‘ldi. Ular onasining shlapasi izsiz yo‘qolib qolgan bo‘lishiga qaramay, baribir timsoh voqeasiga ishonmadilar.





## **MATN YUZASIDAN SAVOLLAR**

### ***G'aroyib tun***

**1. To'satdan sodir bo'lgan g'aroyib hodisaning ilk alomati nima edi?**

- A. Jurnal va gazetalar uyumining siljishi
- B. Anina jurnal muqovasini ko'rib qolgani
- C. Uning xonasi eshigining sinishi
- D. Aninaning shitirlagan tovushni eshitishi

**2. Timsoh qayerdan paydo bo'ldi?**

- A. Yuvinishxonasidan
- B. Jurnal muqovasidan
- C. Yotoq tagidan
- D. Yaqin oradagi daryodan

**3. Qaysi ibora Aninaning qo'rqqanini ifodalaydi?**

- A. «turgan joyida qotib qoldi»
- B. «ko'zlariga ishona olmadi»
- C. «yengil nafas oldi»
- D. «shitirlagan tovushni eshitdi»

**4. Nima uchun Anina timsoh hujum qilmoqchi, deb o'yladi?**

- A. U o'zining uzun tishlarini ko'rsatdi
- B. U qattiq shitirladi
- C. U qiyqirib shovqin ko'tardi
- D. U dumi bilan sekin ortga va oldinga harakatlandi.

**5. Hikoyadagi voqealar ketma-ketligini raqamlar bilan ifodalang. 1 raqami qo'yilgan.**

\_\_\_\_\_ Anina timsohni ko'rib qoldi.

\_\_\_\_\_ Timsah ikkita flamingoni yeb qo'ydi.

\_\_\_1\_\_\_ Anina yuvinishxonasi tomon yurdi.

\_\_\_\_\_ Anina bir sakrashda o'z xonasiga yetib oldi va eshikni yopib qo'ydi.

\_\_\_\_\_ Anina ota-onasiga eshikni nima uchun singanini tushuntirishga harakat qildi.

**6. Nima uchun Anina flamingolarni chaqirdi?**



\_\_\_\_\_

**7. Qanday qilib yotoqxona eshigi sindi?**

- A. Timsah dumi bilan eshikni urgan edi
- B. Katta guldon unga urildi
- C. Flamingoning o'tkir tumshug'i kirib ketdi
- D. Yotoq eshikka urildi

**8. Jurnal Aninaga qanday yordam berdi? Ikkita misol keltiring.**



1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

**9. Voqea yakunida Aninada flamingolarga nisbatan qanday his-tuyg'u paydo bo'ldi?**

- A. Aybdorlik
- B. Hushyorlik
- C. Minnatdorlik
- D. Bezovtalik

**10. Aninaning ota-onasiga tushuntirib berishi qiyin bo'lgan voqea oqibatida sodir bo'gan holatlardan birini yozing.**



\_\_\_\_\_

**11. Siz Aninaning harakatlaridan uning qanday xarakterga**

**ega ekanligini bilib oldingiz? Uning fazilatlaridan birini yozing. Javobingizni asoslash uchun uning bajargan ishlaridan ikkita misol keltiring.**

 1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

**12. Muallif bizga Aninaning sarguzashtlari tushda yoki o'ngda bo'lganligini aytib o'tmadi.**

**Bu tush ekanligiga bitta dalil keltiring.**

 \_\_\_\_\_

**Bu tush emasligiga bitta dalil keltiring.**

 \_\_\_\_\_



## JAVOBLAR TASNIFI

### G'aroyib tun

1.	D
2.	B
3.	A
4.	D
5.	<p>Hikoyadagi voqealar ketma-ketligini raqamlar bilan ifodalang. 1 raqami qo'yilgan.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda gaplar quyida ko'rsatilganidek aniq raqamlanadi. To'liq bahoga ega bo'lish uchun har bir gap to'g'ri raqamlanishi kerak.</p> <p>2. Anina timsohni ko'rib qoldi. 4. Timsoh ikkita flamingoni yeb qo'ydi. 1. Anina yuvinishxonasi tomon yurdi. 3. Anina bir sakrashda o'z xonasiga yetib oldi va eshikni yopib qo'ydi. 5. Anina ota-onasiga eshikning nima uchun singanini tushuntirishga harakat qildi.</p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Boshqa javoblar.</p>
6.	<p>Nima uchun Anina flamingolarni chaqirdi?</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda flamingolarning timsoh uchun yemish ekanligini ta'kidlovchi yoki Anina o'zini timsohdan himoya qilish uchun flamingolardan foydalangan degan umumiy tushuncha ifodalanadi.</p> <p><b>Masalan:</b> <i>Timsohni to'ydirish.</i> <i>Ular Aninani timsohdan qutqaradilar.</i></p>
7.	A



8.	<p>Jurnal Aninaga qanday yordam berdi? Ikkita misol keltiring.</p> <p><b>Jarayon:</b> Ma'lumot va fikrlarni umumlashtirish, sharhlash.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Anina vaziyatdan chiqish uchun ikki usulni qo'llaydi: ularni uyidan chiqarib yuborish yoki timsohni to'ydirish yo'li orqali jurnalga qaytarish.</p> <p><b>Qisman tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda o'quvchi jurnal yordam bergan faqat birgina yo'lni belgilaydi. Ikkinchi yo'l noto'g'ri yoki juda mavhum bo'lishi mumkin.</p>
9.	C
10.	<p>Aninaning ota-onasiga tushuntirib berishi qiyin bo'lgan voqea oqibatida sodir bo'lgan holatlardan <b>birini</b> yozing.</p> <p><b>Jarayon:</b> Diqqatni jamlash va berilgan ma'lumotlarni batafsil ifodalash.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda uyda sodir bo'lgan voqealardan birini tushuntirib berish, jumladan, ho'l bo'lgan pol, singan eshik, onasining yo'qolgan shlapasi, singan guldon, sochilib yotgan kungaboqarlar ifodalanadi.</p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Boshqa javoblar.</p>
11.	<p>Siz Aninaning harakatlaridan uning qanday xarakterga ega ekanligini bilib oldingiz. Uning fazilatlaridan birini yozing. Javobingizni asoslash uchun uning bajargan ishlaridan ikkita misol keltiring.</p> <p><b>Jarayon:</b> Ma'lumot va fikrlarni umumlashtirish, sharhlash.</p> <p><b>To'liq teran tushunchaga ega bo'lish (3 ball):</b> Javobda Aninaning qandayligini ko'rsatuvchi xususiyatlar (misol uchun, aqlli, teran, ijodiy fikrli, topqir, jasur, ehtiyotkor, qo'rqmas, ajoyib) va uni asoslab beradigan aniq ikkita holat tasvirlanadi.</p> <p><b>Masalan:</b> <i>U jasur, chunki o'z xonasidan chiqishga va jurnalni timsohning burni ostiga qo'yishga jur'at etdi.</i></p> <p><b>Qanoatlantiruvchi tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda o'quvchi</p>

tomonidan uning bajargan birgina ishi bilan faqatgina bitta aniq ishonchli tushuncha ta'minlanadi.

**Masalan:** *U aqlli edi, chunki u timsohni haydash uchun reja tuza oldi.*

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Bu javobda Aninaning xususiyati mos keladi, ammo xususiyatni asoslovchi holat noaniq yoki umumiy bo'ladi.

**Masalan:** *Anina aqlli edi. U jurnaldan foydalandi.*

Yoki javobda birgina aniq tushunchani izohsiz beradi.

**Masalan:** *Anina teran fikrlar edi.*

Yoki javobda aniq bir sifatni ko'rsatmay, holatgina izohlanadi.

**Masalan:** *U flamingolarni jurnaldan chiqarib yubordi va timsohni jurnalga qaytara oldi.*

Muallif bizga Aninaning sarguzashtlari tushda yoki o'ngda bo'lganligini aytib o'tmadi.

Bu tush ekanligiga bitta dalil keltiring. \_\_\_\_\_

Bu tush emasligiga bitta dalil keltiring. \_\_\_\_\_

**Jarayon:** Matn elementlari va mazmunini baholash va tadqiq qilish.

12. **To'liq tushunchaga ega bo'lish:** Javobda Anina sarguzashtining ba'zi qismi tush ekanligi, ba'zi qismi esa tush emasligiga asoslanadigan dalillar ta'minlanadi.

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Javobda Anina sarguzashtining tush ekanligiga yoki tush emasligiga asoslanadigan dalillardan biri keltiriladi.

# DUSHMAN PIROGI

(Derek Munson)

**J**eremi Ross eng yaqin do'stim Stenlinga qo'shni bo'lib kelguniga qadar ajoyib yoz fasli edi. Men Jeremini yoqtirmas edim. Uning kechki bazmiga do'stim Stenlin bordi, lekin u meni bazmga hatto taklif ham qilmadi.

Jeremi bu yerga ko'chib kelguniga qadar mening hech qanday dushmanim yo'q edi. Otam mening yoshimda uning ham dushmanlari bo'lganini aytdi.

Ammo u ulardan qanday qutulish yo'lini bilar edi.

Otam oshpazlar kitobidan eskirgan qog'oz parchasini tortdi-da, mamnun bo'lib: «Dushman pirogi», – dedi.

Balki siz pirog tarkibi aynan nimalardan iboratligini o'ylab, ajablanayotgandirsiz?

Otamning aytishicha, pirog tarkibi juda sirli, hatto menga ham buni ayta olmas ekan. Men esa undan bu haqida biror narsa aytishini yolvorib so'radim.



«Tom, «Dushman pirogi» – dushmanlardan qutulishning juda tez va eng oson yo'li, men senga faqat shuni aytishim mumkin».

«Dushman pirogi»ga bir qancha jirkanch, yomon narsalar qo'shilsa kerak, deb o'ylab, otamga chuvalchang, qurt-qumursqalar va toshlar olib kelgan edim, ammo u hammasini qaytarib berdi.

Men o'ynagani ko'chaga chiqdim. Bu vaqtda oshxonadan otamning «Dushman pirogi»ni tayyorlashni boshlagani eshitilib turar edi. Nihoyat, bu men uchun eng ajoyib yoz bo'lishi mumkin, deb o'yladim.

«Dushman pirogi» juda badbo'y bo'lsa kerak, deb tasavvur qilgandim. Lekin oshxonamizdan yoqimli hid kelayotgan edi. Bu holat meni ikkilantirib qo'ydi.



Otamdan nima bo'lganini so'rash uchun uyga kirdim. Men otamga: «Dushman pirogi» bu qadar yoqimli hid taratmasligi kerak», – dedim, lekin otam: «Agar pirogdan yomon hid kelsa, dushmaning uni hech qachon yemaydi», – dedi. U bu pirogini avval ham tayyorlagan-da!

Pechning jiringlagan ovozi eshitildi. Otam pechkadan pirogini olish uchun qo'lqopni kiydi. Pirog ko'rinishidan juda ishtahani ochadigan edi! Men endi tushuna boshlagandim.

Ammo bu shirin «Dushman pirogi»ning biror ish berishiga ishonchim komil emas edi. Natija qanday bo'ladi, dushmanga qanday ta'sir qiladi? Ehtimol, keyin ularning sochlari to'kilar, balki ularning og'zidan badbo'y hid kelar. Bular haqida otamdan so'radim, lekin u javob bermadi.

Pirog sovigunga qadar otam menga nima ish qilishim kerakligi haqida tushuntirdi. «Bu ishni bajarish uchun kunni dushmaning bilan o'tkazishing, bundan ham yomoni, u bilan yaxshi munosabatda bo'lishing kerak. Bu oson emas. Lekin bu «Dushman pirogi» ish berishi uchun yagona yo'ldir. Shu ishni qilishni xohlayotganligingga ishonching komilmi?» – deb so'radi.

Albatta, ishonchim komil edi. Qilishim kerak bo'lgan ish, bu bir kunni Jeremi bilan o'tkazish edi, keyin u mening hayotimdan butunlay ketadi. Men velosipedda uning uyiga borib, eshigini taqillatdim.



Jeremi eshikni ochganida, menga hayron bo'lib qaraganday tuyuldi.

«Ko'chaga chiqib, men bilan o'ynaysanmi?» – deb so'radim.

U menga ikkilanib: «Onamdan so'ray», – dedi.

U oyoq kiyimini ko'tarib qaytib keldi. Biz ko'chaga chiqdik.

Biroz velosipedda sayr qildik, so'ng tamaddi qildik. Keyin esa bizning uyga bordik.

Bu g'alati tuyulishi mumkin, ammo menga dushmanim bilan birga bo'lish zavq bag'ishlayotgandi. Buni otamga ayta olmadim, chunki u pirog tayyorlash bilan o'vora edi.

Otam bizni tushlikka chaqirguniga qadar maza qilib o'ynadik.

Otam mening eng sevimli taomimni pishirgan edi. Buni Jeremi ham yoqtirar ekan. Balki Jeremi juda ham yomon emasdir, balki men «Dushman pirogi»ni unutishim kerakdir, deb o'ylay boshladim.

– Ota, yangi do'st orttirish juda zo'r-da, – dedim, unga Jeremi endi mening dushmanim emasligini aytishga harakat qilib. Ammo otam faqat kulib, boshini qimirlatib qo'ydi. Menimcha, u meni mug'ambirlik qildi, deb o'yladi.

Tushlikdan so'ng otam stol ustiga uchta pirog solingan likopchani qo'yib, birini menga, ikkinchisini esa Jeremiga uzatdi.

– Qoyil! – dedi Jeremi pirogga qarab.

Men vahimaga tusha boshladim, chunki Jeremini «Dushman pirogi»ni yeyishini xohlamas edim.

Endi u mening do'stim edi!

– Yema uni, – deb baqirdim, – bemaza bu pirog.

Jeremi pirogni endi og'ziga olib borayotgan edi, birdan to'xtadi va menga jilmayib qaradi. Men esa yengil tortdim, chunki uning hayotini saqlab qolgan edim.

«Agar bu pirog juda bemaza bo'lsa, nega otang birpasda uning yarmini yeb bo'ldi?» – deb so'radi Jeremi.


Haqiqatan, otam «Dushman pirogi»ni maroq bilan yeyayotgan edi.

Otam jilmayib: Yaxshi-ku, – dedi. Men ularning pirog yeyishlarini kuzatib o'tirardim. Hech birining sochlari to'kilmayotgan edi.

Endi pirog meni qo'rqitmayotgandi. Shuning uchun bir bo'lagini olib, tatib ko'rdim. U juda mazali ekan!

Shirinlikdan so'ng Jeremi meni ertasi kuni ertalabga uyiga taklif qildi.

«Dushman pirogi»ga kelsak, hali ham uning nimalardan tayyorlanishini bilmayman. Hanuzgacha, haqiqatan, dushmanlar nafratlanishadimi, sochlari to'kilib ketadimi yoki og'zidan badbo'y hid keladimi, deb hayron bo'laman. Bunga hech qachon javob topa olmasligimni bilaman. Chunki mening boshqa dushmanim yo'q.





## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### *Dushman pirogi*

1. Voqea kim tomonidan hikoya qilingan?

- A. Jeremi
- B. Otasi
- C. Stenli
- D. Tom

2. Hikoyaning boshida Tom nima uchun Jeremini dushman deb hisobladi?



---

---

---

3. Tomning «Dushman pirogi» tarkibida bo'lishi kerak deb o'ylagan bitta ingrediya (masalliq)ni yozing.



---

4. Pirog bo'lagining rasmi tushirilgan joydagi matnning bir qismini toping va savolga javob bering. Nima uchun Tom «Dushman pirogi»dan so'ng «yoz ajoyib bo'ladi», deb o'yladi?

- A. U tashqarida o'ynashni yaxshi ko'rardi.
- B. U otasining rejasidan hayajonda edi.
- C. U yangi do'st topdi.
- D. U «Dushman pirogi»ni tatib ko'rishni xohladi.

5. Tom birinchi marta «Dushman pirogi»ning hididan o'zini qanday his qildi? Nima sababdan u o'zini shunday his qilganini tushuntiring.



---

---

---

---

6. Tomning fikricha, uning dushmani «Dushman pirogi»ni yesa qanday hodisa sodir bo'lishi mumkin? Misol keltiring.



---

7. Tomning otasi «Dushman pirogi» ish berishi uchun Tomga aytgan ikkita muhim narsa nima edi?



---

8. Tom Jeremining uyiga nima uchun borgan?

- A. Jeremini kechki ovqatga taklif qilish uchun.
- B. Jeremidan Stenlidan uzoqroq yurishni so'rash uchun.
- C. Jeremi bilan birga o'ynash uchun.
- D. Jeremining do'sti bo'lishi uchun.

9. Tom Jeremi bilan kunni birga o'tkazganda uni nimalar hayratga soldi?



---

10. Ovqatlanish paytida Tom nima sababdan o'zi va otasining «Dushman pirogi» haqida unutishi kerak, deb o'ylashni boshladi?

- A. Tom shirinligini Jeremi bilan baham ko'rishni xohlamadi.
- B. Tom «Dushman pirogi»ni ish beradi deb o'ylamadi.
- C. Tom Jeremini yoqtira boshladi.
- D. Tom «Dushman pirogi»ni sir tutishni xohladi.

11. Tomning otasi «Dushman pirogi»ni Jeremiga uzatganda Tom nimani his qildi?

- A. Qo'rquv
- B. Mamnunlik
- C. Hayratlanish
- D. Ikkilanish

**12. Otasi «Dushman pirogi» haqida nimani sir tutdi?**

- A. Bu oddiy pirog edi.
- B. U bemaza ta'mga ega edi.
- C. Bu uning sevimli taomi edi.
- D. Bu zaharli pirog edi.

**13. «Shirinlikdan so'ng Jeremi meni ertasi kuni ertalabga uyiga taklif qildi»**

**Hikoyaning oxiridagi ushbu jumladan bolalar o'rtasidagi munosabat haqida qanday xulosaga kelish mumkin?**

- A. Ular hali ham dushman edi.
- B. Ular Tomning uyida o'ynashni yoqtirmaydi.
- C. Ular ko'proq «Dushman pirogi»ni yeyishni xohlashdi.
- D. Ular kelajakda do'st bo'lishlari mumkin.

**14. Nima uchun Tomning otasi «Dushman pirogi»ni tayyorlaganini tushuntirib bering.**



---

---

---

**15. Tomning otasi qanday odam edi? Misol keltiring.**



---

---

---

**16. Ushbu hikoyadan qanday saboq olish mumkin?**



---

---

---





## JAVOBLAR TASNIFI

### *Dushman pirogi*

1.	D
	<p>Hikoyaning boshida Tom nima uchun Jeremini dushman deb hisobladi?</p> <p>Javobdan Tom Jeremini dushmani deb hisoblashiga sabab, Jeremi uyidagi bazmga uni taklif qilmaganligi yoki yaqin o'rtog'i Stenlini taklif qilib, uni taklif qilmaganligi tushunilishi mumkin.</p> <p><b>Masalan:</b></p>
2.	<p><i>Tom Jeremini bazmga taklif qilmadi.</i></p> <p><i>Jeremi uning do'stini taklif qildi, lekin Tomni taklif qilmadi.</i></p> <p>Yoki o'quvchi javobda Jeremi uning eng yaqin do'sti Stenliga do'st bo'lib, uning o'rnini egallashidan Tom xavotirga tushganini ko'rsatadi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>Tom uni Stenlining qo'shnisi bo'lganiga hasad qildi.</i></p> <p><i>Jeremi uning eng yaqin do'stini olib qo'ydi.</i></p>
3.	<p>Tomning «Dushman pirogi» tarkibida bo'lishi kerak deb o'ylagan bitta ingrediyeht (masalliq)ni yozing.</p> <p>Bu javobda o'quvchi chuvalchaglarni, qurt-qumursqalarni, toshlarini ingrediyeht sifatida belgilaydi.</p>
4.	B
5.	<p>Tom birinchi marta «Dushman pirogi»ning hididan o'zini qanday his qildi? Nima sababdan u o'zini shunday his qilganini tushuntiring.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Bu javobda Tom «Dushman pirogi»ning hidi yomon bo'lishi kerak deb o'ylashi yoki otasi</p>

tayyorlagan pirogdan kelayotgan ajoyib hidga ajablanganligi tasvirlanadi.

**Masalan:**

*«Dushman pirogi» juda badbo‘y bo‘lsa kerak, deb tasavvur qilgandi. Lekin oshxonadan yoqimli hid kelayotgan edi, bu holat uni ikkilantirib qo‘ydi.*

**Qisman tushunchaga ega bo‘lish:** Javobda o‘quvchi Tom «Dushman pirogi»ni birinchi marta hidi chiqqanida ikkilangan yoki hayron bo‘lganligini ko‘rsatadi, lekin nima uchun ekanligini izohlamaydi.

**Masalan:**

*Ikkilandi.*

*Nima bo‘layotganiga hayron bo‘layotgan edi.*

*«Dushman pirogi» badbo‘y hidli deb o‘ylardi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Javob aniq holatni ham, sababini ham ifodalamaydi.

**Masalan:**

*U yaxshi narsaning hidini sezdi (Ushbu javobda Tom nima uchun ikkilanganligi haqida aniq izoh berilmaganligini esda tuting).*

*Uning qorni och edi.*

Tomning fikricha, uning dushmani «Dushman pirogi»ni yesa, qanday hodisa sodir bo‘lishi mumkin? Misol keltiring.

**Javob qabul qilinadi:**

6.

**Masalan:**

*Uning sochlari to‘kilib ketadi.*

*Uning nafasi badbo‘y bo‘ladi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Boshqa javoblar.

7.

Tomning otasi «Dushman pirogi» ish berishi uchun Tomga aytgan **ikkita** muhim narsa nima edi?

**To‘liq tushunchaga ega bo‘lish:** Javob dushman pirogi ish

	<p>beradigan ikkala harakatni ham aniqlaydi: Kunni dushman bilan o'tkazish va u bilan yaxshi munosabatda bo'lish.</p> <p><b>Masalan:</b>  <i>Kun davomida dushmaniga yaxshi munosabatda bo'lishini.</i>  <i>Jeremi bilan kun bo'yi o'ynash va do'st bo'lish.</i></p> <p><b>Qisman tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda o'quvchi Tom otasi tomonidan aytilgan bitta muhim ishni yozadi.</p> <p><b>Masalan:</b>  <i>Yaxshi munosabatda bo'lish.</i>  <i>U bilan kunni birga o'tkazish.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Boshqa javoblar.</p>
8.	C
9.	<p>Tom Jeremi bilan kunni birga o'tkazganda uni nimalar hayratga soldi?</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda Tomda Jeremi yaxshi taassurot qoldirganligi, u Jeremi bilan vaqt o'tkazishdan zavqlanishi, Jeremining Tom kutganidek yomon emasligini yoki u bilan do'stlashayotgani ifodalanadi.</p> <p><b>Masalan:</b>  <i>Dushmani bilan birga bo'lish zavq bag'ishlayotgani.</i>  <i>U haqiqatan ham Jeremi bilan maza qildi.</i>  <i>Jeremi yaxshi edi.</i>  <i>Ular do'st bo'lib qolishdi.</i></p>
10.	C
11.	A
12.	A
13.	D
14.	<p>Nima uchun Tomning otasi «Dushman pirogi»ni tayyorlaganini tushuntirib bering.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javob Tomning otasi</p>

«Dushman pirogi»ni Tom va Jeremining do'st bo'lishi uchun rejalashtirganini ifodalaydi.

**Masalan:**

*Ularni dushman emas, balki do'st bo'lishga undash uchun.*

*Ular do'st bo'lishlarini xohlardi.*

*Ularni birgalikda o'ynashga va do'stlashishga undadi.*

*Tomning Jeremi bilan birga o'ynashi ular orasidagi yaxshi munosabatni yo'lga qo'yishning qulay usuli edi.*

Tomning otasi qanday odam edi? Misol keltiring.

**To'liq tushunchaga ega bo'lish:** Javob Tomning otasida aks etgan xususiyatlarning asosiy bittasini (masalan, foydali, g'amxo'r, yaxshi, aqlli, ayyor, sirli) ifodalaydi. Bunga qo'shimcha ravishda javobda otasining harakatlaridan biri ifodalanadi.

**Masalan:**

*U o'g'liga do'st orttirishga yordam berish uchun g'amxo'rlik qilardi.*

*U bolalarning bir-biriga yoqishi uchun oqilona yo'l topdi.*

*U sir saqlaydigan odam edi. Tomni «Dushman pirogi» oddiy pirog ekanligini bilishiga yo'l qo'ymadi.*

15. *U yaxshi edi. Tom va Jeremining til topishishini xohladi.*

*Tomning otasi mehribon edi. U o'g'lining do'stlashishi uchun reja o'ylab topdi.*

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Javobda Tomning otasining bitta fazilati aks etadi.

**Masalan:**

*U yaxshi inson edi.*

*U yaxshi ota edi.*

*U o'g'liga g'amxo'rlik qilar edi.*

*U Tomga yordam berishni xohlardi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Haqiqatdan uzoq bo'lgan boshqa javoblar.

Ushbu hikoyadan qanday saboq olish mumkin?

**Javob qabul qilinadi:** O'quvchining javobidan kimgadir nisbatan munosabatni o'zgartirishga qaror qilishdan avval imkoniyat berish qanchalik muhimligi tushuniladi.

16.

**Masalan:**


*Kimnidir bilmasdan turib, xulosa chiqarmaslik.*

*Agar imkoniyat berilsa, do'st bo'lish mumkin.*

*Dushmaningiz sizning do'stingizga aylanishi mumkin.*

*Dushmaningizni yoqtirishga harakat qiling. U sizga do'st bo'lishi mumkin.*

# TOMDAGI GULLAR (Ingibord Sigurdardottir)



**M**en bilgan bir kekxa buvi haqida sizga gapirib bersam bo‘ladimi? Aslida, bu g‘alati qariya ayol kuch-g‘ayratga to‘la. Uning haqiqiy ismi – Gunniona, lekin men uni Gunn buvi deb atayman.

U bizning shaharga ko‘chib kelguniga qadar, qishloqda yashar edi. Uning qishloqdagi uyi o‘yinchoq uychaga o‘xshar edi. Uning mittigina derazachalari bo‘lib, tomida esa maysalar ko‘karardi. Shuningdek, tomda gullar ham o‘sar edi.

Gunn buvi o‘z uyida yolg‘iz yashar, lekin u o‘zini yolg‘iz his etmas edi. Chunki uning boshqa hamrohlari: sigir, yettita tovuq, ikkita qo‘y va mushugi bor edi.

Kunlarning birida Gunn buvi betob bo‘lib qoldi.

– Sizda hech qanday jiddiy muammo yo‘q, biroq shaharga ko‘chib borishingiz kerak. Bu yerda butunlay yolg‘iz yashash unchalik ham to‘g‘ri emas. Misol uchun,



siz hovlida yiqilib tushsangiz va oyog'ingizni sindirsangiz, sigiringiz meni chaqirib bera olmaydi-ku, – dedi shifokor.

– O'zimga g'amxo'rlik qila olaman! – javob berdi Gunn buvi. Lekin keyin: «Balki, shaharda yashash qiziqarliroqdir», – deb o'ylab qoldi.

– Yaxshi! – dedi u birdan, men shaharga ko'chib boraman!

Tez orada u tomorqasini sotib, bizning ko'p qavatli uydan xonadon sotib oldi.

Ammo u o'z jonivorlarini nima ham qila olardi? Ularni o'zi bilan shaharga olib keta olmaydi-ku, to'g'rimi? Baxtiga, qo'shni tomorqadagilar jonivorlariga qarab turishga bajonidil rozi bo'lishdi. Shunday bo'lsa-da, Gunn buviga do'stlari – jonivorlaridan ayrilish juda qiyin bo'ldi. Buni o'ylab, uning kayfiyati shunday tushib ketdiki, oxir-oqibat, Robert degan mushugini o'zi bilan olishga qaror qildi.

Gunn buvi hamma narsalarini yuk mashinasiga ortib, birpasda o'zining yangi uyi tomon yo'lga tushdi. U juda hayajonlanar va shaharni tezroq ko'rishni orzu qilar edi.

Men ham hayajonlanib, uyimiz ro'parasiga kim ko'chib kelishini sabrsizlik bilan kutar edim. Balki, u men bilan birga o'ynaydigan bolakaydir. Biroq u Gunn buvi bo'lib chiqdi. Yaxshi, har holda uning mushugi bor-ku.

O'z uyini ko'rib chiqqan Gunn buvi unchalik ham xursand bo'lmadi. Axir bu dahshat! – dedi u.

– Devorlari biram tekis va oppoq. Bu derazalarga qarang, ular haddan ziyod katta! Keyin u jim bo'lib qoldi.



– Men uyimga qaytaman! – dedi u va eshik tomon yo'l oldi. U birdan qichqirib yubordi, uning mushugi Robert derazadan sakragan edi.

– Tashvishlanmang, – dedim men tezda, – u shunchaki ayvonga sakradi. Qarang! Gunn buvi ayvonga yugurib chiqdi. U yerga yetib borganda esa Robertni unutdi. Ayvon juda katta bo'lib, uzoqdan tog'lar va hatto dengizning bir bo'lagi ham ko'rinib turar edi. Gunn

buvi uylarning tomlarini ko'rish uchun emas, balki faqat tog'lar va osmonni tomosha qilish uchun balandga cho'zildi. Shundan keyingina u qolishga qaror qildi.

Lekin ertasi kuni unga buyumlarini joylashtirish uchun yordam bergani kelganimda, u hali ham xafa ko'rinardi.

– Jonivorlaringiz siz bilan birga bo'lmagani uchun xafamisiz?  
– qiziqdim men. – Ha, men ularni sog'indim, – deb xo'rsindi u.

– Unday bo'lsa, nima uchun ularni olib kelmaysiz? – deb so'radim. Gunn buvi menga ko'z qisib, ayyorlik bilan jilmayib qo'ydi.


Ertasi kuni undan xabar olish uchun kelganimda, uyda hech kim yo'q edi. Gunn buvi avtobusda qishloqqa yo'l olgandi.

Kechasi zinapoyadan kelgan qoqolagan baland tovushdan uyg'onib ketdim. Bu nima bo'lishi mumkin? E, ha! Tovuqlar! Ehtimol, ular liftda yurishdan qo'rqishar?

Ertasi kuni men Gunn buviga tovuqlarga don berishda yordamlashdim.

– Men o'zimni go'yoki uyga qaytib kelganday his qilyapman, – derdi u.

– Tovuqlarim atrofimda qoqolashadi, agar yaxshilab qarasang, men ko'rib turgan tog'lar – bu o'sha o'zimning tomorqam yaqinidagi tog'lar ekanini tasavvur qilish mumkin. Lekin menga yer va o'tlarning hidi yetishmayapti. To'satdan, u ko'zlarini katta-katta ochib, qaddini rostladi. Gunn buvi qandaydir yangilik o'ylab topgandi.





– Eshit, – dedi u – seningcha, agar tomda o‘tlar o‘ssa, ajoyib bo‘lmasmidi?

– Ertaga do‘konga borishimizga to‘g‘ri keladi, deb o‘ylayman.



Biz shunday ham qildik.

Uyga qaytgach, Gunn buvi uyning tomiga chim bo‘laklarini yotqizdi. U ehtiyotkorlik bilan chim bo‘laklarini yoyib, tushib ketmasligi uchun mahkamladi.

Ana endi Gunn buvining ko‘ngli biroz ko‘tarildi. U shaharda o‘zi uchun qishloq manzarasiga o‘xshash burchak yaratdi. Hozir u tomdagi tomorqasini xuddi eski tomorqasiday yaxshi ko‘radi. Tomda yana gullar ham o‘smoqda.

Gunn buvi men taniydigan odamlarning birortasiga ham o‘xshamaydi.

U hamma narsani qila oladi! Hozir uni faqat bir narsa xavotirga solmoqda. Liftga sigirni kirgizishni eplay olarmikan?



## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### Tomdagi gullar

1. Bu voqea kim tomonidan hikoya qilingan?

- A. Buvi.
- B. Yosh bola.
- C. Shifokor.
- D. Fermer.

2. Ushbu uylarning qaysi biri boshqalariga nisbatan Gunn buvining qishloqdagi uyiga ko'proq o'xshaydi?



Nima uchun shifokor Gunn buvining shaharga ko'chib kelishi kerakligi haqidagi qarorga keldi?

- A. Chunki do'stlarisiz u yolg'iz edi.
- B. Chunki u yerda qarindoshlari bilan yashashi mumkin.
- C. Chunki endi u o'z jonivorlariga g'amxo'rlik qila olmas edi.
- D. Chunki zarurat tug'ilsa, kimdir unga g'amxo'rlik qilishi mumkin.

**3. Gunn buvi shaharga ko‘chib kelganida uning jonivorlariga qarab turishga kim rozi bo‘ldi?**

- A. Qo‘shni tomorqadagi odamlar.
- B. Shifokor.
- C. Gunn buvining oilasi.
- D. Robert.

**4. Gunn buviga yangi uyning devor va derazalari yoqmadi. Yana nima sababdan o‘zini baxtiyor his qila olmadi?**

- A. U kasal edi.
- B. U mushugini sog‘inar edi.
- C. Unga ayvon yoqmadi.
- D. U qishloqdagi uyini sog‘inar edi.

**5. Mushuk derazadan sakraganda Gunn buvi nima uchun qichqirib yubordi?**



\_\_\_\_\_

**6. Ayvonga chiqqan Gunn buvi uylarning tomlarini ko‘rish uchun emas, balki faqat tog‘lar va osmonni tomosha qilish uchun balandga cho‘zildi. Nima uchun u bunday qildi?**



\_\_\_\_\_

**7. Hikoyada Gunn buvining rasmi tasvirlangan joyni toping. Nima uchun Gunn buvi bolakayga ko‘zini qisdi va ayyorlik bilan jilmayib qo‘ydi?**



\_\_\_\_\_

**8. Gunn buvi yangi uyda o‘zini o‘z uyidagidek his qilishi uchun nimalar qildi? Ikkita misol keltiring.**



1. \_\_\_\_\_



2. \_\_\_\_\_

**9. Hikoyaning soʻnggida yangi uyda Gunn buvi oʻzini qanday his qildi?**



\_\_\_\_\_

**10. Nima uchun hikoyaning oxirgi jumlasida «Liftga sigirni kirgizishni eplay olarmikan?» degan savol keltirilgan?**

- A. Hikoyani yanada zavqliroq qilish uchun.
- B. Hikoyaning axloqiy tomonini tushuntirish uchun.
- C. Hikoyani ishonarli qilish uchun.
- D. Kitobxonga nima boʻlganini tushunishga yordam berish uchun.

**11. Gunn buvi birinchi marta uyiga koʻchib kelganida va hikoyaning oxirida bolada buviga nisbatan qanday his-tuygʻular kuzatildi? Oʻqiganlaringizdan foydalanib, bolaning his-tuygʻularini ifodalang va uning his-tuygʻulari nima uchun oʻzgarganligini tushuntiring.**



\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**12. Ushbu hikoyadan nimani bilib olish mumkin?**

- A. Keksalar yangi joyga koʻchib oʻtishganda hech qachon baxtli boʻlmaydi.
- B. Agar qadrli boʻlgan narsani olsagina, yangi joyda oʻzini uyidagidek his qilishi mumkin.
- C. Hattoki hayvonlar shovqin qilsa ham, ular bilan yashashga koʻnikish mumkin.
- D. Bolalar va keksalar yaxshi doʻst boʻla olishmaydi.





## JAVOBLAR TASNIFI

### Tomdagi gullar

1.	A
2.	C
3.	D
4.	A
5.	D
	<p>Mushuk derazadan sakraganda Gunn buvi nima uchun qichqirib yubordi?</p> <p><b>Maqsad:</b> Badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini oshirish.</p> <p><b>Jarayon:</b> To'g'ri xulosalarni shakllantirish.</p> <p><b>Javob qabul qilinadi:</b> Bu javob mazmunida nima uchun Gunn buvi qichqirib yuborganligi haqida to'g'ri xulosa aks etadi.</p> <p>Javobda Gunn buvi derazaning tashqi tomonida ayvon borligini bilmasligi haqida tushuncha mavjud.</p> <p><b>Masalan:</b> <i>U ayvon borligini bilmasdi.</i></p>
6.	<p>Yoki javobda u mushugining azoblanishi yoki o'lib qolishi mumkinligidan qo'rqanligi ifodalanadi.</p> <p><b>Masalan:</b> <i>U mushugini pastga tushib ketdi, deb o'yladi.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Bu javob mazmunida nima uchun Gunn buvi qichqirib yuborganligi haqida to'g'ri xulosa aks etmaydi.</p> <p><b>Masalan:</b> <i>U mushugi qochib ketishi mumkin deb o'ylardi/ U mushuk qochib ketgan deb o'ylardi.</i> <i>Mushuk uni qo'rqitdi / U qo'rqib ketdi.</i></p>

*U mushugini yaxshi ko‘rardi.*

*U mushuk qaytmaydi, deb qo‘rqardi.*

Ayvonga chiqqan Gunn buvi uylarning tomlarini ko‘rish uchun emas, balki faqat tog‘lar va osmonni tomosha qilish uchun balandga cho‘zildi. Nima uchun u bunday qildi?

**Maqsad:** Badiiy matnlar orqali o‘qish savodxonligini oshirish.

**Jarayon:** Ma’lumotlarni umumlashtirish va sharhlash.

**To‘liq tushunchaga ega bo‘lish:** O‘quvchilar matnni turli qismlaridan ma’lumotlarni birlashtirib, Gunn buvining osmon va tog‘larga bo‘lgan tuyg‘ularini tushuntirishadi.

Javobda Gunn buvi qishloqdagi uyining derazasidan ayvondagi ko‘rinish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘radi. Javobda o‘quvchilar Gunn buvi osmon va tog‘larni ko‘rib, qishloqdagi uyni eslaganini e’tiborga olishi mumkin.

7. **Masalan:**

*Chunki ular qishlog‘ini eslatdi.*

*U bu tog‘lar tomorqasining yaqinida joylashgan deb tasavvur qildi.*

*U tomorqasini esladi va uni sog‘indi / Bu narsa uyini kamroq sog‘inishga yordam berar edi.*

Yoki Gunn buvi yashagan joyini (qishloqni) ko‘ra olishi taxmin qilishi mumkin, deb javob beriladi.

**Masalan:**

*Chunki u oldin yashagan qishlog‘ini ko‘rishni xohlagan edi.*

*Chunki u tog‘larni tomorqasi yonida ko‘rgan bo‘lishi mumkin.*

**Qisman tushunchaga ega bo‘lish:** Javobda o‘quvchi Gunn buvining ayvondan qaraganidagi tuyg‘ularini aniq tasvirlagani yoki nima uchun bunday qilganini to‘g‘ri tushuntirishi mumkin. Lekin uning bu tuyg‘ulari qishloqdagi uyi bilan bog‘liq bo‘lmaydi.

**Masalan:**

*Tog‘lar chiroyli edi.*

*U shahar tashqarisida nimalarni koʻrgan boʻlsa, yana shularni koʻrishi mumkin edi.*

*U yanada chiroyli narsalarni koʻrish uchun shunday qildi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Ushbu javobda oʻquvchilar Gunn buvi-ning osmon va togʻlarga boʻlgan tuygʻularini tushunmagani aks etadi.

**Masalan:**

*Chunki u charchagan edi.*

*Chunki u tomlar ustidan hech narsani koʻra olmasdi.*

*Faqat osmon va togʻlarni tomosha qilish uchun qaradi (javob savolni takrorlaydi).*

Hikoyada Gunn buvining rasmi tasvirlangan joyni toping. Nima uchun Gunn buvi bolakayga koʻzini qisdi va ayyorlik bilan jilmayib qoʻydi?

**Maqsad:** Badiiy matnlar orqali oʻqish savodxonligini oshirish.

**Jarayon:** Toʻgʻri xulosalarni shakllantirish.

**Javob qabul qilinadi:** Ushbu javobda Gunn buvi koʻzlarini qisib qoʻygani toʻgʻri izohlanadi.

8. Javobda oʻquvchi Gunn buvining shu paytda oʻz jonivorlarini shaharga olib kelishi mumkinligini tushunganini aks ettiradi. Bu javobda, shunchaki, uning fikri yoki rejasi borligi yoki u bolaning unga qanday yaxshi fikr berganligini tushunib yetishi aytilgan boʻlishi mumkin.

**Masalan:**

*Chunki bola unga yaxshi fikr berdi / Chunki bola unga fikr berdi.*

*Unda reja paydo boʻldi.*

Yoki javobda Gunn buvi bola aytgan fikrga qoʻshilganini koʻrish mumkin.

**Masalan:**

*«Ha, men buni qilaman», – deb oʻyladi u.*

*Chunki u bu yaxshi reja / yaxshi g'oya ekaniga qo'shildi.*

Yoki javobda, uning fikricha, yana bir necha jonivorlarini shaharga ko'chirishi mumkinligi keltiriladi.

**Masalan:**

*Chunki u jonivorlarini shaharga olib kelishni o'yladi.*

*U tovuqlarini ko'chirib olib kelishga qaror qildi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Javobda Gunn buvi nima uchun ko'zini qisib qo'ygani to'g'ri aks ettirilmaydi.

**Masalan:**

*Unga kichik bola yoqib qoldi.*

*Bu yomon fikr, deb qaror qildi.*

*Chunki u baxtiyor edi.*

Gunn buvi yangi uyda o'zini o'z uyidagidek his qilishi uchun nimalar qildi? Ikkita misol keltiring.

**Maqsad:** Badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini oshirish.

**Jarayon:** Berilgan matndan aniq ma'lumotni topish.

**To'liq tushunchaga ega bo'lish:** Javobda Gunn buvining o'zini o'z uyidagidek his qilishi uchun qilgan harakatlari to'liq tushuntiriladi.

**Masalan:**

9. *Gunn buvi uyning tomiga chim bo'laklarini yotqizdi, tovuqlarini xonadoniga olib keldi.*

*U mushugini o'zi bilan olib keldi va keyin esa jonivorlarini olib kelish uchun qishlog'iga ketdi.*

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Javobda Gunn buvining o'zini o'z uyidagidek his qilishi uchun qilgan harakatlari qisman tushuntiriladi.

Gunn buvi harakatlarining faqat bittasi javobda ko'rsatiladi.

**Masalan:**

*U mushugini shaharga olib keldi.*



	<p><i>U tomga chim yotqizib, gul ekdi.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Javobda Gunn buvining oʻzini oʻz uyidagidek his qilishi uchun qilgan harakatlari ifodalanmaydi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U shaharga koʻchib oʻtdi.</i></p> <p><i>U yangi uyini oʻzining tomorqasiga oʻxshatishga harakat qildi.</i></p> <p><i>Ularni oʻzi bilan birga olib keldi (EʼTIBOR BERING, «ularni» juda noaniq).</i></p>
10.	<p>Hikoyaning soʻngida yangi uyda Gunn buvi oʻzini qanday his qildi?</p> <p><b>Maqsad:</b> Badiiy matnlar orqali oʻqish savodxonligini oshirish.</p> <p><b>Jarayon:</b> Toʻgʻri xulosalarni shakllantirish.</p> <p><b>Javob qabul qilinadi:</b> Javobda hikoyaning soʻngida Gunn buvining tuygʻulari toʻgʻri aks etadi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U oʻzini oʻz uyiga qaytib kelgandek his qildi.</i></p> <p><i>Unga endi bu uy yoqib qolgan edi.</i></p> <p><i>U oʻzini baxtiyor his qildi.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Javobda hikoyaning soʻngida Gunn buvining tuygʻulari toʻgʻri aks etmaydi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>Unga yoqmadi.</i></p> <p><i>U uyini sogʻindi.</i></p> <p><i>Baxtsiz, chunki u jonivorlarini sogʻinib qoldi.</i></p>
11.	A
12.	<p>Gunn buvi birinchi marta uyiga koʻchib kelganida va hikoyaning oxirida bolada buviga nisbatan qanday his-tuygʻular kuza-tildi? Oʻqiganlaringizdan foydalanib, bolaning his-tuygʻularini ifodalang va uning his-tuygʻulari nima uchun oʻzgarganligini tushuntiring.</p>

**Maqsad:** Badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini oshirish.

**Jarayon:** Ma'lumotlarni umumlashtirish va sharhlash.

**Teran to'g'ri tushunchaga ega bo'lish:** Javobda hikoya davomida muallifning his-tuyg'ulari qanday o'zgarganligi ko'rsatiladi.

Shuningdek, bolaning Gunn buvini ko'rgandagi salbiy tuyg'ulari hikoyaning oxirida ijobiy tuyg'uga o'zgarganligi ifodalanadi. Bundan tashqari, matndagi tegishli ma'lumotlarga asoslanib, nima uchun uning tuyg'ulari o'zgarganligi to'g'risida tushuntirish beriladi.

**Masalan:**

*Avvaliga, u buvisining qarshisidagi uyda yashashini istamadi. U Gunn buvini yaxshi ko'rishni boshlaganida, jonivorlarga yaqin bo'lish qanday ajoyibligini tushunib yetdi.*

**Yetarlicha tushunchaga ega bo'lish:** Javobda o'quvchi bolaning Gunn buviga bo'lgan his-tuyg'ulari va ularning o'zgarish sabablarini to'g'ri tushunishini aks ettiradi. Bolaning Gunn buvini ko'rgandagi salbiy tuyg'ulari hikoyaning oxirida ijobiy tuyg'ularga o'zgarganligi ifodalanadi. Ammo javobda nima uning his-tuyg'ularini o'zgartirgani yoki sodir bo'lgan o'zgarishlarni izohlamaydi.

**Masalan:**

*U bolalar ko'chib kelmaganligidan xafa bo'ldi, lekin oxir-oqibat, unga buvi yoqib qoldi.*

*Dastlab uning umidi puchga chiqdi, chunki u bolalar ko'chib keladi, deb o'ylagan edi. Keyin u qayg'uga tushdi, chunki bu kampir edi. Oxiri, u baxtiyor bo'ldi.*

*Qariya ko'chib kelganida, bolaning umidi puchga chiqdi, lekin uni bilgandan keyin buvi unga yoqib qoldi.*

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Muallif hikoya boshida

Gunn buviga nisbatan salbiy tuyg'ulari yoki hikoyaning oxiridagi ijobiy tuyg'ularini ifodalaydi.

**Masalan:**

*U ko'chib kirganida umidsizlikka tushgandi.*

*Oxirida unga yoqdi.*

*U hamma narsani qila olishini ko'rdi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Bolada Gunn buviga nisbatan hikoyaning boshida yoki oxirida qanday tuyg'ulari bo'lgani, nima uchun ular o'zgarganligi haqida hech qanday izohlar keltirilmaydi.

**Masalan:**

*Dastlab bola Gunn buvini g'alati deb o'yladi.*

*Kichkina bola unga yomon munosabatda bo'ldi.*

13.

B



# UCH, BURGUT, UCHAQOL!

(Afrika xalqlari ertagi)

**K**unlarning birida cho‘pon yo‘qolgan buzog‘ini topib kelish uchun yo‘lga otlanibdi. Chunki bir kun oldin kuchli bo‘ron turib, poda buzoqsiz qaytgan edi.

U vodiya borib, buzoqni daryo bo‘yidan, qamishzorlar ichidan, tog‘- u toshlar orasidan qidirib, baland qoyali tog‘ yonbag‘riga chiqibdi. U buzog‘ini: «Balki, bo‘rondan qochib qutulish uchun toshlar orqasiga yashiringandir», – deb xarsangtosh orqasiga qarabdi. Shunda uning bir g‘ayritabiiy narsaga ko‘zi tushib, hayratdan to‘xtab qolibdi. Endi tuxumdan chiqqan bir yoki ikki kunlik burgut bolasini kechagi kuchli bo‘ron inidan uloqtirib yuborgan edi.

Cho'pon ehtiyotkorlikda ikkala qo'li bilan palaponni ko'tarib olibdi. U burgut bolasini uyiga olib borib, unga g'amxo'rlik qilishga qaror qilibdi.

Cho'pon uyga yaqinlashib qolganida, bolalari uning qarshisiga yugurib chiqishdi.

«Buzoqning o'zi qaytib keldi!» – deb qiyqirishdi ular.

Cho'pon bu xabardan mamnun bo'ldi. U burgut bolasini oilasiga ko'rsatib, so'ngra uni tovuqxonadagi tovuqlar va jo'jalar orasiga joylashtirdi.

«Burgut – qushlar hukmdori, – dedi u, – biz esa unga tovuqlardek bo'lishni o'rgatamiz».



Shunday qilib, burgut tovuqlar orasida yashab, ularning yashash tarziga moslashibdi. U katta bo'lgani sari tashqi ko'rinishidan boshqa jo'jalardan butunlay farq qila boshlabdi.

Bir kuni cho'ponning do'sti mehmonga kelib, jo'jalarning orasidagi qushni ko'rib qolibdi.

«Hoy, axir bu tovuq emas, burgut-ku!» – dedi do‘sti.

Cho‘pon unga jilmayib: «Yo‘q, bu tovuq. Qara, u tovuq kabi yuradi, tovuq kabi oziqlanadi, tovuq kabi o‘ylaydi. Albatta, bu tovuq», – dedi.

Lekin do‘sti bunga ishonmadi. «Men senga uning burgut ekanligini isbotlayman», – dedi u.

Cho‘ponning bolalari do‘stiga qushni ushlashga yordam berishibdi. Do‘sti qushning yaxshigina og‘ir bo‘lishiga qaramay, boshi uzra tepaga ko‘tarib: «Sen tovuq emas, burgutsan. Sen yerga emas, osmonga tegishlisan! Uch, burgut, uchaqol!» – debdi.

Shunda qush qanotlarini keng yozib atrofqa qaradi, donlab yurgan tovuqlarni ko‘rib, ularning qatoriga qo‘shilish uchun pastga sakrab tushdi.



«Men senga uni tovuq deb aytgan edim-ku», – deya cho‘pon xaxolab kuldi.

Ertasi kuni hali tong yorishmasdan dehqonning itlari vovullay boshladi. Tashqaridan qandaydir ovoz eshitildi. Cho‘pon eshikni ochib qarasa, yana o‘sha do‘sti kelgan ekan.

– Menga yana bir imkon ber, – yalindi u.

– Hozir soat necha ekanligini bilasanmi? Hali tong ham yorishgani yo‘q.

– Men bilan yur, qushni ham o‘zing bilan ol.

Cho‘pon istar-istamas tovuqlar orasida qattiq uxlab yotgan qushni oldi. Ikkovlon yo‘lga tushib, birpasda qorong‘ilikka sho‘ng‘ib ketdi.

– Qayerga ketyapmiz? – dedi uyqusirab cho‘pon.

– Tog‘ga, qushni topgan joyingga.

– Nega bunday bemahalda?

– Bizning burgutimiz o‘ziga tegishli bo‘lgan osmonda turib, tog‘lar ortidan quyoshning chiqishini kuzatishi kerak.

Ular vodiya yetib, daryoni kesib o‘tdi.

«Tezroq», – dedi do‘sti, – kun yorishguniga qadar ulgurishimiz kerak».

Ular tog‘ga chiqqanlarida, quyosh nurlari endi ufqdan ko‘rinayotgan

edi. Bu nurdan osmondagi pag‘a bulutlar avval pushti, so‘ngra oltindek tovlana boshladi. Ba‘zan ular tog‘lar orasidagi xavfli tor yo‘llarni kesib o‘tar, goh chuqurlikka, goh yana tepalikka chiqardi. Nihoyat, do‘sti: «Yetib keldik», – dedi. U qoyadan pastga qarab, o‘zidan minglab kilometr naridagi poyonsiz yerni ko‘rdi. Ular cho‘qqiga juda yaqin kelib qolgan edi.

Do‘sti qoyaning kunchiqar tomoniga qushni qo‘yib, u bilan gaplasha boshladi. Buni ko‘rgan cho‘pon xaxolab kuldi, biroq do‘sti gapirishda davom etdi. Unga quyosh, quyoshning qanday qilib yerga hayot bag‘ishlashi, osmonda qanday hukmronlik qilishi, har bir yangi kunni yoritib turishi haqida gapirib: «Quyoshga nazar sol, burgut! U ko‘tarilsa, u bilan sen ham birga ko‘taril. Sen yerga emas, osmonga tegishlisan!» – dedi. Shu payt quyoshning ilk nurlari tog‘ uzra porlab, dunyo nurga chulg‘ana boshladi.

Quyosh viqor bilan ko‘tarildi. Salobatli qush qanotlarini keng yoyib, quyoshni qarshi oldi. Qushning qanotlari quyosh taftini his qildi. Buni ko‘rib cho‘pon jim bo‘lib qoldi. Do‘sti esa burgutga: «Sen yerga emas, osmonga tegishlisan! Uch, burgut, uchaqol!» – deb, cho‘ponning yaqiniga bordi. Atrofga sukunat cho‘kdi.

Kutilmaganda burgut boshini ko‘tarib, qanotlarini keng yoydi, qoyani ushlab turgan panjalari esa oldinga intildi.

So‘ngra hech bir qaltis harakatsiz, havo oqimini har qanday inson yoki qushdan ko‘ra kuchliroq his qilgan holda, ko‘tarilayotgan quyoshning yorqinligida ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha balandroq va yanada balandroq ko‘tarilib, hech qachon tovuqlar orasiga qaytmaslik uchun parvoz qildi.





## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### Uch, burgut, uchaqol!

1. Hikoyaning boshida cho‘pon nimani qidirish uchun yo‘lga otlangan edi?

- A. Buzoqni.
- B. Podani.
- C. Toshli qoyani.
- D. Burgut bolasini.

2. Cho‘pon burgut bolasini qayerdan topib oldi?

- A. Qush uyasidan.
- B. Daryo bo‘yidan.
- C. Xarsangtosh orqasidan.
- D. Qamishlar orasidan.


3. Cho‘ponning burgut bolasiga ehtiyotkor bo‘lganligini qaysi holatda ko‘rish mumkin?


- A. U burgut bolasini ikkala qo‘li bilan ko‘tarib olgan edi.
- B. U burgut bolasini uyiga olib kelgan edi.
- C. U burgut bolasini uyasiga qaytarib qo‘ygan edi.
- D. U daryo bo‘yidan burgut bolasini qidirgan edi.

4. Cho‘pon burgut bolasini uyiga olib kelib nima qildi?

- A. Uni uchishga o‘rgatdi.
- B. Uni ozod qildi.
- C. Uni tovuqlar bilan birga boqib, tovuqlardek bo‘lishni o‘rgatdi.
- D. Unga yangi uya qurib berdi.

5. Do‘sti birinchi marta mehmonga kelganda, burgut bolasi o‘zini tovuqlardek tutdi. Bu holatni ko‘rsatadigan ikkita misol keltiring.

 1. \_\_\_\_\_

 2. \_\_\_\_\_

6. Dehqonning do‘sti burgutni birinchi marta ko‘rganida, uni uchirishga qanday harakat qildi?

- A. U burgutni boshi uzra ko‘tardi.



- B. U burgutni yerga qo‘ydi.
- C. U burgutni osmonga irg‘itdi.
- D. U burgutni tog‘ga olib bordi.

**7. Cho‘ponning do‘sti burgutga: «Sen yerga emas, osmonga tegishlisan!» – deganida nimani nazarda tutganini tushuntirib bering.**



---

---

---

**8. Do‘sti birinchi marta mehmonga kelganida, cho‘pon nima sababdan kuldi?**

- A. Burgut uchish uchun juda og‘irlik qilganiga.
- B. Burgutni ushlab qiyin bo‘lgani uchun.
- C. Burgut jo‘jalardan farq qilgani uchun.
- D. Uning haq ekanligini burgut isbotlagani uchun.

**9. Nima uchun do‘sti burgutni uchishga majbur qilib, baland tog‘ga olib bordi? Ikkita sababni keltiring.**



1. \_\_\_\_\_



2. \_\_\_\_\_

**10. Osmonning qanchalik chiroyli ekanligi haqida aytilgan so‘zlarni toping va ko‘chirib yozing.**



\_\_\_\_\_

**11. Nima uchun ko‘tarilayotgan quyosh ertakda muhim belgi sifatida ifodalangan?**

- A. Quyosh – burgutning uchish instinktini uyg‘otuvchi.
- B. Quyosh – osmonning hukmdori.
- C. Quyosh – qushning qanotlarini isituvchi.
- D. Tog‘ cho‘qqilarini yorituvchi.

**12. Cho‘ponning do‘sti qilgan ishidan uning qanday inson ekanligini bildingiz. Do‘stining bitta fazilatini yozing. Bu fazilatni isbotlovchi bajargan ishlaridan birini keltiring.**



\_\_\_\_\_



## JAVOBLAR TASNIFI

### Uch, burgut, uchaqol!

1.	A
2.	C
3.	A
4.	C
5.	<p>Do'sti birinchi marta mehmonga kelganda burgut bolasi o'zini tovuqlardek tutdi. Bu holatni ko'rsatadigan ikkita misol keltiring.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda o'quvchi burgut bolasi tovuqdek harakatlanishini ikkita misolda ifodalaydi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>1. Burgut bolasi uchmadi. 2. Burgut bolasi tovuqlardek yurdi.</i></p> <p><b>Qisman tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda o'quvchi burgut bolasi tovuqdek harakatlanishini bitta misolda ifodalaydi.</p>
6.	A
7.	<p>Cho'ponning do'sti burgutga: «Sen yerga emas, osmonga tegishlisan!» – deganida nimani nazarda tutganini tushuntirib bering.</p> <p><b>Jarayon:</b> Ma'lumot va fikrlarni umumlashtirish, sharhlash.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javob jumlaning ikkala qismini («sen yerga emas», «osmonga tegishlisan») ham to'liq ochib berishi kerak. Bunda uning burgut ekanligi va tovuq emasligi aniq ko'rsatiladi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U o'zini yerda emas, osmonda erkin his qilsin.</i></p> <p><i>Bu yerda yuradigan tovuq emasligini bildiradi. U uchish uchun burgut bo'lib tug'ilgan.</i></p> <p><i>U tovuqlar orasida yashash uchun emas, boshqa qushlar kabi uchish uchun tug'ilgan.</i></p>

	<p><i>Uning uyi yer emas, samo.</i></p> <p><b>Qisman tushunchaga ega bo'lish:</b> Javob sitataning bitta qismini ochib beradi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U tovuq emas.</i></p> <p><i>Burgut – qushlar hukmdori.</i></p> <p><i>U uchish uchun tug'ilgan.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Javobda sitata noaniqlik va chalkashlik bilan tushuntirilgan yoki oddiygina boshqacha talqin qilingan bo'lishi mumkin.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U yerga tegishli, osmonga emas.</i></p> <p><i>U osmonga tegishli, yerga emas.</i></p>
8.	D
9.	<p>Nima uchun do'sti burgutni uchishga majbur qilib, baland tog'ga olib bordi? Ikkita sababni keltiring.</p> <p><b>Jarayon:</b> Ma'lumot va fikrlarni umumlashtirish, sharhlash.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda quyosh bilan tog'lar burgutning tabiiy yashash joyi yoki baland tog'larning osmonga yaqinligi bilan bog'liq bo'lgan sabablar keltiriladi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>Burgut o'ziga tegishli bo'lgan osmonda turib, tog'lar ortidan quyoshning chiqishini kuzatishi kerak.</i></p> <p><b>Qisman tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda quyosh bilan tog'lar burgutning tabiiy yashash joyi yoki baland tog'larning osmonga yaqinligi bilan bog'liq bo'lgan bitta sabab keltiriladi.</p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Javobda cho'ponning do'sti nima uchun burgutni tog'ga olib borganligi emas, burgutga uchishni o'rgatishni xohlaganligi keltiriladi.</p>

10.	<p><b>Masalan:</b> <i>Uning burgutligini isbotlash uchun.</i> Javob aniq bo'lmagan yoki savolning bir qismi takrorlangan bo'ladi.</p> <p><b>Masalan:</b> <i>Uni uchishga majburlash uchun.</i> <i>Bu uning uchishini yengillashtiradi.</i> * E'tibor qiling, o'quvchilar quyidagi fikrlarni ham keltirishi mumkin. <i>Quyoshning chiqishini ko'rishi va taftini his qilishi uchun.</i> <i>Havo oqimini his qilishi uchun.</i> <i>U topilgan va o'ziga tegishli bo'lgan tabiiy yashash joyida bo'lishi uchun.</i> <i>Osmonga yaqin bo'lishi, balandda turib, o'zining osmonga tegishli ekanligini his qilishi uchun.</i></p>
11.	<p>Osmonning qanchalik chiroyli ekanligi haqida aytilgan so'zlarni toping va ko'chirib yozing.</p> <p><b>Jarayon:</b> Matn elementlari va mazmunini baholash va tahlil qilish.</p> <p><b>Javob qabul qilinadi:</b> Javobda quyidagi so'zlar yoki iboralar keltiriladi.</p> <p><b>Masalan:</b> <i>Osmondagi pag'a bulutlar avval pushti, so'ngra oltindek tovlana boshladi.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Boshqa javoblar.</p> <p><b>Masalan:</b> <i>Quyosh chiqishi</i> <i>Tong otishi</i> <i>Chiroyli</i></p>
11.	A

Cho'ponning do'sti qilgan ishidan uning qanday inson ekanligini bildingiz? Do'stining bitta fazilatini yozing. Bu fazilatni isbotlovchi bajargan ishlaridan birini keltiring.

**Jarayon:** Ma'lumotlarni umumlashtirish, sharhlash.

**To'liq tushunchaga ega bo'lish:** Javobda bitta mos keluvchi xususiyat (qat'iyatli, o'jar, hayvonlarga do'st, mehribon, aqlli va h.k), shuningdek, uning bu xususiyatini isbotlovchi bajargan ishlaridan biri ifodalanadi.

**Masalan:**

*U qat'iyatli. U burgutga uchishni o'rgatishga bo'lgan urinishda davom etdi.*

*U aqlli edi. U burgutni uchishga majburlash uchun tog'ga olib borish kerakligini bilar edi.*

12. *U taslim bo'lmaydigan inson. U cho'ponning uyiga burgutning, haqiqatan ham burgutligini isbotlash uchun qaytib keldi.*

*U hayvonlarga rahmdil edi. U burgutning ozod bo'lishini juda xohladi.*

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Javobda bitta mos keluvchi xususiyat (qat'iyatli, o'jar, hayvonlarga do'st, mehribon, aqlli va h.k) yoki uning qaysidir xarakter-xususiyatini ifodalovchi harakatlaridan biri keltiriladi.

**Masalan:**

*U hayvonlarga rahmdil edi.*

*U burgutning tovuqlar orasida yashamasligi, quyoshni ko'rishi va uchishi uchun olib ketdi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Javob do'stining xarakter-xususiyatlarini aniq ochib bermaydi.

**Masalan:**

*U yovuz. Unga burgutning tovuq ekanligini aytadi (Bu javob cho'ponning do'stini emas, cho'ponni ta'riflashini unutmang).*

*U baxtiyor (Matnda baxtliligini asoslaydigan hech bir dalil keltirilmaganligiga ahamiyat bering).*



## LEONARDO DA VINCHI O‘z davridan ilgarilab ketgan inson

**K**o‘pchilik odamlar Leonardo da Vinchi ismini eshitishsa, uning mashhur surati «Mona Liza»ni yodga olishadi. Bu surat Parijdagi badiiy san‘at muzeyida saqlanadi. Har yili millionlab sayyohlar uni ko‘rish uchun kelishadi.

Biroq Leonardo nafaqat rassom, balki iste‘dodli ixtirochi, muhandis, arxitektor va haykaltarosh ham bo‘lgan. U ko‘plab yangi va g‘aroyib g‘oyalarga boy edi.

Leonardo da Vinchi 1452-yilda Italiyaning Vinchi shahri yaqinida joylashgan otasining shahar tashqarisidagi uyida tug‘ilgan. Uning bolaligi tabiat qo‘ynida o‘tgan. U o‘zining atrofidagi hayvonlar va hasharotlarni doim kuzatar edi.


Keyinchalik Leonardo otasi bilan Florensiya shahriga ko‘chib keladi. U yerda Verrokkiyo ismli taniqli rassom va haykaltarosh qo‘lida hunar o‘rganib, ishlay boshlaydi.

U Verrokkiyoning qo‘lida ishlagan vaqtida o‘z zamonasidagi texnikalar haqida juda ko‘p ma‘lumotga ega bo‘ladi. Bu unga turli xil mexanizmlarning qanday ishlashini tushunib olishga yordam beradi. U yana har xil bo‘yoqlarni aralashtirib, kerakli ranglar olishni va haykallar yaratish uchun metaldan foydalanishni o‘rganib oladi.


Leonardo doimo bilimga chanqoqlikni his etar edi. U o‘z atrofidagi

olamni o‘rganar va ko‘rganlarini chizib borar edi. U qo‘liga tushgan barcha kitoblarni o‘qir, boshqa odamlarning g‘oyalarini tinglar va ulardan bilib olgan yangi narsalarni yozib borardi. Ayrim qo‘lyozmalari plakatlardek katta, boshqalari esa belbog‘ida olib yurishga qulay bo‘lishi uchun kichkina bo‘lgan. U yozganlarining ko‘pi yo‘qolib ketgan, lekin ayrimlari XIX asr boshida chop etilgan bo‘lib, ularni hozirgi kunda ham ko‘rish mumkin. Ularda rasmlar va husnixat bilan yozilgan yozuvlar bor.

Leonardoning qo‘lyozmalarida ixtirolarining tasvirlari bor. Shuningdek, bu qo‘lyozmalar uning nimalarga va ular qanday qilib ishlashiga bo‘lgan katta qiziqishini ham ko‘rsatadi. Uni mashinalar qiziqtirar edi, ammo shu bilan birgalikda, unga tirik mavjudotlarning qanday harakatlanishi, ularning tuzilishi ham qiziq edi. U oqayotgan suv, daraxtdagi barglar, uchayotgan qushlar va inson tanasini o‘rganar va tasvirlar edi. Atrof-muhitni kuzatish jarayonida har doim biror yangilikni o‘zi uchun bilib olar edi. Leonardo barcha bilimlarini va boshqalardan eshitgan g‘oyalarni doim rivojlantirib, takomillashtirib borgan. Natijada uning qo‘lyozmalaridagi aksariyat tasvirlarda mutlaqo yangi g‘oyalar aks etadi. Ayrimlari kelajak tasvirlariga o‘xshaydi. Masalan, uning «Uchar mashina»



Leonardo da Vinchining «Uchar mashina» rasmi



Leonardo da Vinchining «Uchar mashina» chizmasi

chizmasi osmonda havo sharlari va samolyotlar paydo bo'lishidan ancha oldin chizilgan.

Leonardo yangi g'oyalarga boy bo'lishiga qaramay, rasmlaridagi tasvirlarning ko'pchiligini hayotga tatbiq etmadi. Qo'lyozmalarining birida parashut bilan tasvirlangan odamning rasmi bor edi. Faqat bu g'oya 300 yildan keyin 1783-yili birinchilardan bo'lib, bir fransuz yerga parashutda tushgandan keyingina hayotga tatbiq etildi.

Uning boshqa ixtirosi inson tanasini o'rganish va uning qanday harakatlana olishiga bo'lgan qiziqishi asosida yaratilgan. Leonardoda odamning qo'llari, oyoqlari va boshqa a'zolari aks etgan rasmlari ko'p bo'lib, u, haqiqatan, mexanik odam-robotni loyihalashtirgan! Bu robot to'g'ri o'tira olar, qo'llarini silkitar, boshini qimirlatar, og'zini ocha olar va yopa olar edi.

Leonardo da Vinchi 1519-yilda vafot etdi. U, haqiqatan ham, o'z davridan ilgarilab ketgan inson edi.





## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### Leonardo da Vinchi o'z davridan ilgari ketgan inson

1. Leonardo da Vinchi kim bo'lgan?

- A. Fermer.
- B. Shifokor.
- C. Haykaltarosh.
- D. Quruvchi.

2. Leonardo da Vinchining bolalikdagi qaysi tajribasi uning ixtirochi bo'lib yetishishida yordam bergan?

- A. Otasi bilan Parijga qilgan sayohati.
- B. Hayvonlar va hasharotlarni kuzatgani.
- C. Badiiy muzeylarni borib ko'rish.
- D. Kerakli rangni chiqarish uchun ranglarni aralashtirishi.

3. Verrokkiyo nima bilan mashhur bo'lgan edi?



\_\_\_\_\_

4. Leonardo da Vinchi Verrokkiyodan nimalarni o'rgandi? Ikkita misol keltiring. Bu bilimlari unga kelgusi hayotida qanday yordam berganini tushuntiring.



\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

5. «Bilimga chanqoqlikni his etar edi» jumlasidan Leonardo da Vinchi to'g'risida nimani tushunish mumkin?

- A. U keragidan ortiq narsani bilishni xohlagan.
- B. Unda turli mexanizmlarni yaratish g'oyalari ko'p bo'lgan.

- C. U iqtidorli rassom va haykaltarosh bo'lgan.
- D. U o'z kelajagi haqida tasavvurga ega edi.

**6. Nima sababdan hozirgi kunda Leonardo da Vinchining qo'lyozmalari insonlar uchun muhim ahamiyatga ega?**



---

---

**7. Nima uchun Leonardo da Vinchi ko'plab ixtirolarini hayotga tatbiq etilganligini ko'ra olmadi?**

- A. U ko'plab yangi ixtirolarini yaratish bilan band bo'lgan.
- B. U nafaqat ixtirochi, balki rassom ham bo'lgan.
- C. Uning ixtirolari amalga oshganida u vafot etgan edi.
- D. U hech kimga ixtirolarini amalga oshirishga yo'l qo'ymadi.

**8. Leonardo da Vinchi tabiatdan o'rgangan narsalaridan bitta misol keltiring. Bu kuzatuvlar unga ixtirolar qilishda qanday yordam berganligini tushuntirib bering.**



---

---

---

---

---

**9. Parashut qachon ilk marotaba hayotga tatbiq etilgan?**

- A. 1452-yilda
- B. 1519-yilda
- C. 1783-yilda
- D. 1800-yilda

**10. Matn «O'z davridan ilgarilab ketgan inson – Leonardo da Vinchi», – deb nomlangan. Leonardo da Vinchi ixtirolaridan bitta misol keltiring va u qanday qilib o'z davridan ilgarilab ketganligini tushuntirib bering.**



---

---

---

---

**11. Ushbu matnga quyidagi sarlavhalardan yana qaysi biri mos kelishi mumkin?**

- A. Leonardo da Vinchi – metalga ishlov berish bo‘yicha mashhur usta.
- B. Leonardo da Vinchi – Italiyada yashagan odam.
- C. Leonardo da Vinchi – mashhur rassom.
- D. Leonardo da Vinchi – g‘oyalarga boy inson.

**12. Muallif Leonardo da Vinchi haqida nimalarni o‘ylayapti? O‘z fikringizni tushuntirishda o‘qiganlaringizdan foydalaning.**



---

---

---

---



## JAVOBLAR TASNIFI

### Leonardo da Vinchi o'z davridan ilgarilab ketgan inson

1.	C
2.	B
3.	<p>Verrokkiyo nima bilan mashhur bo'lgan edi?</p> <p><b>Maqsad:</b> Ma'lumotni qabul qilish va undan foydalanish uchun o'qish savodxonligini oshirish.</p> <p><b>Faoliyat:</b> Berilgan matndan ma'lumotni topish.</p> <p><b>Javob qabul qilinadi:</b> Javobda matndagi Verokkiyoning professional tavsiflaridan hech bo'lmaganda bittasi aniq keltiriladi. Verokkiyo rassom, haykaltarosh, degan javoblar yoki ulardan bittasini keltirsa ham, o'quvchi 1 ballga ega bo'ladi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U o'z rasmlari tufayli tanilgan.</i></p> <p><i>U o'zining rassomchilik ishlari (namunalari) bilan taniqli.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Matndagi Verokkiyoning professional tavsiflaridan bittasi ham keltirilmagan bo'lsa.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U Leonardo da Vinchi bilan ishlagan.</i></p> <p><i>Chunki u Florensiyada yashagan.</i></p> <p><i>Ixtirolari tufayli.</i></p> <p><i>Chunki u Leonardoga ranglarni aralashtirib, yangi rang chiqarishga yordam bergan.</i></p>
4.	<p>Leonardo da Vinchi Verrokkiyodan nimalarni o'rgandi? <b>Ikkita</b> misol keltiring. Bu bilimlari unga kelgusi hayotida qanday yordam berganini tushuntiring.</p> <p><b>Maqsad:</b> Ma'lumotni qabul qilish va undan foydalanish uchun o'qish savodxonligini oshirish.</p>

**Jarayon:** Ma'lumotni umumlashtirish va izohlash.

**Chuqur tushunchaga ega bo'lish:** Javobda Leonardoning Verokkiyo bilan o'tkazgan vaqtlari uning kelajakda yutuqqa erishishiga qanday ta'sir ko'rsatganligi ifodalanadi. Javob matndagi ma'lumotlarni bog'lash va umumlashtirish orqali ifodalanadi.

O'quvchi javobda Leonardoning Verokkiyodan olgan saboqlaridan hech bo'lmaganda ikkitasini keltirishi kerak. Shuningdek, bu saboqlar Leonardoga kelgusi hayotida qanday yordam berganligi haqida izohlar keltiriladi.

**Masalan:**

*U texnika haqida bilib oldi, bu esa unga ixtirolar qilishida yordam berdi. Shuningdek, u bo'yoqlarni aralashtirib yangi rang chiqarishni, metall bilan ishlashni o'rgandi, bu esa unga rassom va haykaltarosh bo'lishi uchun yordam berdi.*

*U texnika haqida, bo'yoqlarni aralashtirish va boshqa muhim narsalar haqida bilib oldi, bular unga rasm chizish, haykal yasash, ixtirolar qilishda yordam berdi.*

**Yetarlicha to'g'ri tushunchaga ega bo'lish:** Javobda Leonardoning Verokkiyo bilan o'tkazgan vaqtlari uning kelajakda yutuqqa erishishiga qanday ta'sir ko'rsatganligi ifodalanadi. Javob matndagi ma'lumotlarni bog'lash va umumlashtirish orqali ifodalanadi.

O'quvchi javobda Leonardoning Verokkiyodan olgan saboqlaridan hech bo'lmaganda ikkitasini keltirishi kerak. Shuningdek, bu saboqlar Leonardoga kelgusi hayotida qanday yordam berganligi haqida bitta izoh keltiriladi.

**Masalan:**

*U texnika haqida va bo'yoqlarni aralashtirish haqida ko'p narsalarni bilib oldi. Bu esa unga mashhur rassom bo'lishi uchun yordam berdi.*

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Javobda Leonardoning Verokkiyo bilan o'tkazgan vaqtlari uning kelajakda yutuqqa erishishiga qanday ta'sir ko'rsatganligi qisman keltiriladi.

O'quvchi javobda Leonardoning Verokkiyodan olgan saboqlaridan hech bo'lmaganda bittasini keltirishi kerak. Ammo bu saboq Leonardoga kelgusi hayotida qanday yordam berganligi haqida hech qanday izoh keltirilmaydi.

**Masalan:**

*U rasm chizish texnikasi haqida va bo'yoqlarni aralashtirish haqida ko'p narsalarni bilib oldi.*

*U haykaltaroshlikda metaldan foydalanishni bilib oldi va bu unga mashhur bo'lishida yordam berdi.*

*Rassomlik va haykaltaroshlik.*

Yoki javobda Leonardoning Verokkiyodan olgan saboqlaridan bittasi yoziladi.

**Masalan:**

*U bo'yoqlarni aralashtirishni o'rgandi.*

Yoki javobda Leonardoning Verokkiyodan o'rgangan saboqlari haqida hech narsa deyilmasligi ham mumkin.

**Masalan:**

*Bu unga o'zining shaxsiy ixtirolarini yaratish uchun yordam berdi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Javobda Leonardoning Verokkiyo bilan o'tkazgan vaqtining ahamiyati ifodalanmaydi. Leonardoning kelgusidagi rasm, haykaltaroshlik, kashfiyotchilik borasidagi yutuqlari tilga olinmaydi.

**Masalan:**

*U hafsala bilan ishlar edi.*

*Bu unga mashhur bo'lishiga yordam berdi.*

*Unga san'at va boshqa narsalar haqida gapirib berdi.*

	<i>Bu unga g'oyalarni paydo bo'lishida / ilhomlanishida yordam berar edi.</i>
5.	A
	<p>Nima sababdan hozirgi kunda Leonardo da Vinchining qo'lyozmalari insonlar uchun muhim ahamiyatga ega?</p> <p><b>Maqsad:</b> Ma'lumotni qabul qilish va undan foydalanish uchun o'qish savodxonligini oshirish.</p> <p><b>Jarayon:</b> To'g'ri xulosalarni shakllantirish.</p> <p><b>Javob qabul qilinadi:</b> Javobda Leonardo da Vinchining qo'lyozmalari insonlar uchun muhim ahamiyatga egaligi bo'yicha to'g'ri xulosa keltiriladi.</p> <p>Hozirgi kunda insonlar Leonardo da Vinchining qo'lyozmalari tufayli uning g'oyalarini bilib olishi ifodalanadi. Javobda Leonardoning qo'lyozmalaridagi ma'lumotlar, aniq g'oyalar keltiriladi yoki o'quvchi, umuman, qo'lyozmalarining qiymati haqida yozishi mumkin.</p> <p><b>Masalan:</b>  <i>Qo'lyozmalar uni uchar mashinalar haqida o'sha paytlar o'ylaganini ko'rsatadi.</i>  <i>Qo'lyozmalari uning g'oyalarini ko'rsatadi.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Javobda Leonardo da Vinchining qo'lyozmalari va ularning zamondoshlarimiz uchun muhimligi haqida yetarlicha xulosa keltirilmaydi.</p> <p><b>Masalan:</b>  <i>Ular u qanday chiroyli rasm chizishni bilganini ko'rsatadi.</i>  <i>Chunki u mashhur edi.</i></p>
6.	
7.	C
	<p>Leonardo da Vinchining tabiatdan o'rgangan narsalaridan bitta misol keltiring. Bu kuzatuvlar unga ixtirolar qilishda qanday yordam berganligini tushuntirib bering.</p>

	<p><b>Maqsad:</b> Ma'lumotni qabul qilish va undan foydalanish uchun o'qish savodxonligini oshirish.</p> <p><b>Jarayon:</b> To'g'ri xulosalarni shakllantirish.</p> <p><b>To'liq tushunchaga ega bo'lish:</b> Javobda matnni to'liq tushunganlik namoyish etiladi. Leonardoning tabiatni o'rganishi va keyingi ixtirolari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatiladi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U qushlarni o'rgangani uchun uchar mashina qanday bo'lishi kerakligini bilgan.</i></p> <p><i>U qushlar va hasharotlarni o'rgangan edi. Bu unga uchar buyumlarni qanday yasalishini tushunishga yordam berdi.</i></p> <p>8. <b>Qisman tushunchaga ega bo'lish:</b> Leonardoning tabiatni o'rganishi haqida qisman fikr beriladi, lekin Leonardoning tabiatni o'rganishi va keyingi ixtirolari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilmaydi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>Uning qushlarni o'rganishi ixtirolari uchun yordam berdi.</i></p> <p><i>Inson tanasini o'rganishi natijasida u yangi g'oyalarni o'ylab topa boshladi.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Javobda matnni to'liq tushunganlik namoyish etilmaydi. Leonardoning tabiatni o'rganishi va keyingi ixtirolari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilmaydi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>U tabiatdan ko'p narsa o'rgandi.</i></p> <p><i>U uchar mashina va robotni ixtiro qildi.</i></p>
9.	C
10.	<p>Matn «O'z davridan ilgarilab ketgan inson – Leonardo da Vinchi» deb nomlangan. Leonardo da Vinchi ixtirolaridan bitta misol keltiring va u qanday qilib o'z davridan ilgarilab ketganligini tushuntirib bering.</p>



**Maqsad:** Ma'lumotni qabul qilish va undan foydalanish uchun o'qish savodxonligini oshirish.

**Jarayon:** Ma'lumotni umumlashtirish va sharhlash.

**To'liq tushunchaga ega bo'lish:** Javobda matnning asosiy g'oyasi to'liq keltiriladi, matn mazmuni va sarlavhaning bog'liqligi aks ettiriladi.

**Masalan:**

*U odamlar qanday qilib uchishlari mumkinligini o'ylab topdi. Bu esa uning o'z davridan ilgari ketganligini ko'rsatadi, chunki samolyotlar uning vafotidan keyin ancha yillar o'tib yaratildi.*

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Javobda matnning asosiy g'oyasi qisman keltiriladi.

**Masalan:**

*U robotni qanday yaratishni o'ylab topdi.*

*U uchar mashinani kashf etdi. Boshqa odamlar undan foydalanishmoqda.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Javobda matnning asosiy g'oyasi keltirilmaydi, matn mazmuni va sarlavhaning bog'liqligi aks ettirilmaydi.

**Masalan:**

*U haykaltaroshlikda metallardan foydalanadi.*

*U nima qilgan bo'lsa, bu uning zamonasidan ilgari ketganini ko'rsatadi.*

11. D

Muallif Leonardo da Vinchi haqida nimalarni o'ylayapti? O'z fikringizni tushuntirishda o'qiganlaringizdan foydalaning.

12. **Maqsad:** Ma'lumotni qabul qilish va undan foydalanish uchun o'qish savodxonligini oshirish.

**Jarayon:** Matn elementlari, tili va mazmunini baholash va tahlil qilish.

**To'liq tushunchaga ega bo'lish:** Muallifning Leonardoga nisbatan ijobiy munosabati va unga keltirilgan dalil to'liq ifodalanadi.

**Masalan:**

*Muallifning fikricha, u, haqiqatan ham, juda aqlli inson, chunki u shunday buyuk kashfiyotlarni amalga oshirgan.*

*Muallif Leonardoni buyuk inson deb hisoblaydi, chunki u matnda kashfiyotchi haqida «iqtidorli rassom, muhandis, arxitektor» degan so'zlarni ishlatadi.*

**Qisman tushunchaga ega bo'lish:** Muallifning Leonardoga nisbatan ijobiy munosabati va unga keltirilgan dalil qisman ifodalanadi.

**Masalan:**

*Muallifning fikricha, Leonardo juda aqlli va iqtidorli inson.*

*Muallifning fikricha, Leonardo juda yaxshi ixtirochi bo'lgan.*

*Muallifning fikricha, Leonardo, haqiqatan ham, o'z davridan ilgarilab ketgan inson.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Javobda muallifning Leonardoga nisbatan ijobiy munosabati va unga keltirilgan dalili ifodalanmaydi.

**Masalan:**

*Leonardo bir necha yil avval yashagan.*

*Muallif juda yaxshi hikoya yozgan.*

# **ULKAN TISH SIRI**

Toshga aylangan topilmalar – Yer yuzida ko‘p yillar oldin yashagan mavjudot va o‘simliklarning qoldiqlaridir.

Odamlar asrlar davomida ko‘llar, toshlar va qoyalardan mavjudot va o‘simliklarning qoldiqlarini topganlar. Biz bugungi kunda bu qoldiqlarning ba‘zilari dinozavrlarniki ekanligini bilamiz.

Ko‘p yillar muqaddam ulkan suyaklarni topgan odamlar ular nima-ning qoldig‘i ekanligini bilishmagan. Ba‘zilar bu katta suyaklarni o‘zlari ko‘rgan yoki o‘qigan yirik hayvonlar, ya‘ni begemot yoki fillarning suyaklari deb o‘ylashgan. Lekin topilgan suyaklarning ba‘zilari, hattoki



eng katta begemot va filning suyagidan ham juda katta edi. Ana o‘shanda ayrim odamlar bahaybat hayvonlarning mavjud bo‘lganligiga ishona boshlagan.

Bir necha asr avval fransiyalik Bernard Palissida boshqacha g‘oya paydo bo‘ldi. Bernard mashhur kulol edi. Bir safar u ko‘za yasash bilan shug‘ullanayotgan paytda tuproq orasidan ko‘plab mayda qotgan suyakchalarni topib oldi. U suyak qoldiqlarini o‘rganib chiqib, ular tirik mavjudotlarning qoldiqlari ekanligini yozdi. Bu g‘oya yangilik emas edi. Lekin yana Bernard Palissi bu mavjudotlarning ba‘zilari yer yuzida ko‘p yashamaganligini ham yozdi. Ular butunlay qirilib, yer yuzidan yo‘qolib ketgan edi.

Bernard Palissi bu kashfiyoti uchun mukofotlandi, deb o‘ylaysizmi? Yo‘q! Aksincha, u bu g‘oyalari uchun qamoqqa olindi.

Biroq vaqtlar o‘tib, insonlarning qadim-qadimda dunyomiz qanday bo‘lganligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni qabul qilishi osonlashdi.



*Toshga aylangan tishning tabiiy ko‘rinishi*

1820-yilda Angliyadan ulkan toshga aylangan tish topildi. Aytishlaricha, toshga aylangan topilmalar tadqiqotchisi Gideon Mantelning rafiqasi Meri Enn Mantell sayr qilayotganida katta tishga o'xshagan narsani topib olgan. U bu ulkan tish noyob topilma ekanligini bilib, uni turmush o'rtog'iga ko'rsatish uchun uyiga olib borgan.

Gideon Mantell dastlab tishga qaraganida uni o'txo'r hayvonlarga tegishli degan qarorga keldi, chunki u tekis va qirrali edi. Tishning qirralari chaynash natijasida yemirilib qolgan, kattaligi esa deyarli filning tishidek kelardi. Lekin u mutlaqo filning tishiga o'xshamas edi.

Gideon Mantell tishga yopishib qolgan tosh bo'lakchalarining tarkibi juda qadimiyligini aniqladi. U shunga o'xshash tosh bo'lakchalari, odatda, sudralib yuruvchilarning toshga aylangan qoldiqlaridan topilganligini bilar edi. Bu tish ozuqasini chaynaydigan o'txo'r, ulkan sudraluvchilarga tegishli bo'lishi mumkinmi? Endilikda sudralib yuruvchilarning bunday turlari qirilib ketganmi?


Ulkan tish ustida Gideon Mantelning boshi qotdi. U bilgan sudralib yuruvchilarning hech biri ozuqasini chaynamasdi. Chunki sudralib yuruvchilar o'z yemishini qanday bo'lsa, shundayligicha yutib yuborishar, shuning uchun ham ularning tishlari yemirilmas edi. Bu yerda qandaydir bir jumboq bor edi.

Gideon Mantell tishni Londondagi muzeyga olib borib, uni boshqa olimlarga ham ko'rsatdi. Lekin olimlarning hech biri Gideon Mantelning bu ulkan sudralib yuruvchining tishi bo'lishi mumkinligi haqidagi fikriga qo'shilmadi.

Gideon Mantell shunga o'xshash ulkan tishli sudralib yuruvchini topishga harakat qildi. U uzoq vaqt hech narsa topmadi. Biroq bir kuni u iguanalarning ustida izlanishlar olib borayotgan olimni uchratib qoldi. Iguana – bu Markaziy va Janubiy Amerikadan topilgan bahaybat o'txo'r sudralib yuruvchidir. Ba'zilarining uzunligi bir yarim metr dan ham katta bo'lishi mumkin. Olim Gideon Mantelga iguananing tishini ko'rsatdi.



*Gideon Mantelning  
qo'lyozmasidagi  
iguananing  
tabiiy tish tasviri*




Nihoyat! Bu tish sudralib yuruvchining tishi boʻlib, «sirli tish»ga oʻxshar edi. Biroq ulkan tish qoldigʻi undan anchagina yirik edi.

Shunda Gideon Mantell toshga aylangan tish iguanaga oʻxshagan hayvonga tegishli ekanligiga ishonch hosil qildi. Biroq bu hayvon bir yarim metr boʻlishi mumkin emas edi. Gideon Mantelning taxminicha, uning uzunligi oʻttiz metr atrofida edi. U bu jonzotni «Iguanodon» deb nomladi, bu esa «Iguana tishi» degan maʼnoni anglatardi.

Gideon Mantelda Iguanodonning butun skeleti yoʻq edi. U yillar davomida toʻplagan suyaklar tufayli Iguanodonning qanday boʻlishi mumkinligini tasvirlashga urinib koʻrdi. U bu mavjudotni toʻrt panjada yurgan deb hisoblagan. Gideon Mantell oʻtkir uchli suyakni shox deb oʻylab, Iguanodoni burni ustidagi shoxi bilan tasvirlagan.

Yillar oʻtib, Iguanodonning bir nechta butun skeletlari topildi. Ular atigi 9 metr uzunlikda boʻlgan. Suyaklarning koʻrinishidan hayvonlar koʻproq orqa panjalari bilan harakatlanganligini aniqlashgan. Gideon Mantell Iguanodonning burni ustidagi shox deb oʻylagan narsa, aslida, uning oldingi panjalari bosh barmogʻidagi uchli boʻrtiq edi! Bu



*Gideon Mantell o'ylagan Iguanodonning ko'rinishi*

kashfiyotlarga asoslanib, olimlar Iguanodonning ko'rinishi haqidagi fikrlarini o'zgartirishdi.

Gideon Mantell bir qancha xatoliklarga yo'l qo'ydi. Shuningdek, u muhim kashfiyot qildi. U toshga aylangan tishni o'txo'r sudralib yuruvchilarga tegishli deb taxmin qilib, ko'p yillarni o'z g'oyasini tasdiqlovchi dalil va isbotlarni yig'ish uchun sarfladi.

Asosli taxminlari tufayli Gideon Mantell qadimda Yer yuzida ulkan sudraluvchilar yashaganligini, ammo keyinchalik bu sudraluvchilar yer yuzidan qirilib ketganligini bildirgan birinchi tadqiqotchilardan biri bo'lib qoldi. Yuz yillar oldin Bernard Palissi xuddi shu fikrni aytgani uchun qamoqqa olingan edi. Lekin Gideon Mantell esa mashhur bo'lib ketdi. Uning bu kashfiyoti ulkan sudralib yuruvchilar haqida ko'proq bilishni xohlovchi odamlarda qiziqish uyg'otdi.

1842-yilda Richard Ouen ismli olim:

«Qirilib ketgan bu sudralib yuruvchilar o'z nomiga ega bo'lishlari kerak», degan fikrga keldi va ularni «dinozavrlar» deb atadi.

Bu esa «bahaybat kaltakesak» degan ma’noni anglatadi.  
Bugungi kunda biz ularni «dinozavrlar» deb ataymiz.



*Bugungi kunda olimlar Iguanodoni shunga o‘xshatishgan*





## MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

### Ulkan tish siri

1. Toshga aylangan topilmalar nima?

- A. Qoya yoki xarsanglarning yuzasi.
- B. Ulkan maxluqlarning suyaklari.
- C. Ko‘p yillar oldin yashagan mavjudot va o‘simliklarning qoldiqlari.
- D. Fillarning tishlari.

2. O‘qiganlaringizga asoslanib, nima uchun o‘tmishda odamlar ulkan hayvonlarning borligiga ishonishganligini tushuntirib bering?



---

---

---

3. Bernard Palissi suyak qoldiqlarini qayerdan topgan edi?

- A. Qoyalar ichidan.
- B. Tuproq orasidan.
- C. Daryo bo‘yidan.
- D. Yo‘lakdan.

4. Bernard Palissining yangi g‘oyasi nima edi?



1. \_\_\_\_\_

---

5. Bernard Palissi nima uchun qamoqqa olindi?

- A. Odamlar yangi g‘oyalarni to‘g‘ri qabul qilishmas edi.
- B. U Gideon Manteldan g‘oyalarni ko‘chirgani uchun.
- C. U kulolchilik ustaxonasida kichik suyak qoldiqlarini qoldirgani uchun.
- D. Suyak qoldiqlarini o‘rganish Fransiyada taqiqlanganligi uchun.

**6. Angliyada toshga aylangan tishni kim topdi?**

- A. Bernard Palissi.
- B. Meri Enn Mantell.
- C. Richard Ouen.
- D. Gideon Mantell.

**7. Gideon Mantell sudralib yuruvchilar haqida shunday narsa bilgan ediki, topilgan tishni o'rganayotgan paytda uning bundan boshi qotdi. U nima edi?**

- A. Sudralib yuruvchilarning tishlari bo'lmagan.
- B. Sudralib yuruvchilar qoyalar tagidan topilgan.
- C. Sudralib yuruvchilar ancha oldin yashagan.
- D. Sudralib yuruvchilar o'z ozuqalarini chaynamay yutishgan.

**8. Gideon Mantell tish turli xil hayvonlarga tegishli bo'lishi mumkin deb o'yladi. Bunday fikrga kelishga uni nima majbur qilganini ko'rsatuvchi quyidagi jadvalni to'ldiring.**

Hayvon turi	Nima uchun bunday fikrga keldi
O'txo'r hayvonlar	Tishi tekis qirrali edi
Bahaybat hayvonlar	
Sudralib yuruvchilar	

**9. Gideon Mantell nima uchun tishni muzeyga olib bordi?**

- A. Bu suyak qoldig'i muzeyga tegishli ekanligini so'rash uchun
- B. U suyak qoldiqlarini o'rganuvchi tadqiqotchi ekanligini isbotlash uchun.
- C. Olimlar uning g'oyasi haqida nima deb o'ylashlarini bilish uchun
- D. Muzeydagi boshqa tishlarga solishtirish uchun

**10. Olim Gideon Mantelga bir iguana tishini ko'rsatdi. Nima uchun Gideon Mantelga bu juda ham muhim edi?**



**11. Iguanodon ko'inishini tasvirlash uchun Gideon Mantell nimadan foydalandi?**

- A. To'plagan suyaklaridan.
- B. Boshqa olimlarning fikrlaridan.
- C. Kitobdagi rasmlardan.
- D. Boshqa sudralib yuruvchilarning tishlaridan.

**12. Iguanodonning ikkita tasviriga qarang. Ular sizga nimani tushunishingizga yordam beradi?**



---

---

---

**13. Keyingi topilmalar shuni isbotlaydiki, Gideon Mantell Iguanodonning ko'inishi haqida xatoga yo'l qo'ydi. Jadvaldagi bo'sh joylarni to'ldiring.**

<b>Gideon Mantelning fikricha, Iguanodon qanday ko'inishga ega bo'lgan?</b>	<b>Bugungi kun olimlarining fikricha, Iguanodon qanday ko'inishga ega bo'lgan?</b>
Iguanodon to'rt panjada yurgan	
	Iguanodonning «bosh barmog'i»da uchli bo'rtiq bo'lgan
Iguanodon o'ttiz metr (100 fut uzunlikda) bo'lgan	

**14. Gideon Iguanodonning ko'inishi haqida xatoga yo'l qo'yganligini qaysi topilmalar ko'rsatib berdi?**

- A. Ko'plab tish suyaklari.
- B. Olimlarning chizmalari.
- C. Jonli Iguanodonlar.
- D. Butun skeletlar.



## JAVOBLAR TASNIFI

### Ulkan tish siri

1.	C
	<p>O'qiganlaringizga asoslanib, nima uchun o'tmishda odamlar ulkan hayvonlarning borligiga ishonishganligini tushuntirib bering?</p> <p><b>Maqsad:</b> Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish.</p> <p><b>Jarayon:</b> Matnda keltirilgan dalillarga asoslanib, to'g'ri xulosalarni shakllantirish.</p> <p><b>Javob qabul qilinadi:</b> Javobda odamlar o'tmishda katta suyaklar, skeletlar, toshga aylangan suyaklarni topganlari uchun ulkan hayvonlarning borligiga ishonganliklari ifodalanadi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>Topilgan suyaklar ular taniydigan hayvonlarga tegishli bo'lishi uchun juda ham kattalik qilar edi.</i></p> <p><i>Ular eng katta begemotga tegishli bo'lishi uchun ham kattalik qiladigan bahaybat suyaklarni topishgan.</i></p> <p><i>Ular juda yirik suyaklarni topishdi.</i></p> <p><i>Suyaklar shunday katta ediki, ular ulkan mavjudotlarga tegishli bo'lishi kerak edi.</i></p> <p>*Eslatma: Ba'zi o'quvchilar ulkan so'zini katta yoki gigant kabi ma'nodosh so'zlar yordamida ifodalashi mumkin. Bunday javoblar ma'no jihatidan to'g'ri kelsa qabul qilinadi.</p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Javobda odamlar o'tmishda katta suyaklar, skeletlar, toshga aylangan suyaklarni topganlari uchun ulkan mavjudotlarga ishonganliklari ifodalanmaydi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>Bahaybat mavjudotlar, haqiqatan ham, juda katta.</i></p>

3.	<p>B</p> <p>Bernard Palissining yangi g'oyasi nima edi?</p> <p><b>Maqsad:</b> Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish.</p> <p><b>Jarayon:</b> Fikrlar va ma'lumotlarni talqin qilish va umumlash-tirish.</p> <p><b>Javob qabul qilinadi:</b> Javobda Palissining yangi g'oyasiga ko'ra, ba'zi toshga aylangan suyaklar yer yuzidan mutlaqo qirilib ketgan hayvonlarga tegishli bo'lgan degan tushuncha ifodalanadi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>Toshga aylangan suyaklar yer yuzidan qirilib ketgan hayvonlarniki bo'lishi mumkin.</i></p>
4.	<p><i>Ba'zi suyaklar yer yuzida ortiq yashamayotgan mavjudotlarga tegishli bo'lgan.</i></p> <p><i>Uning g'oyasiga ko'ra, ba'zi hayvonlar mutlaqo yo'qolib ketgan.</i></p> <p><b>Javob qabul qilinmaydi:</b> Javobda Palissining yangi g'oyasiga ko'ra, ba'zi toshga aylangan suyaklar yer yuzidan mutlaqo qirilib ketgan hayvonlarga tegishli bo'lgan degan tushuncha ifodalanmaydi.</p> <p><b>Masalan:</b></p> <p><i>Toshga aylangan suyaklar hozirgi mavjudotlarning qoldiqlaridan edi.</i></p> <p><i>Sudralib yuruvchilar yer yuzidan qirilib ketgan.</i></p> <p><i>U qoldiqlarni loyning ichidan topdi.</i></p> <p><i>U mashhur kulol edi.</i></p> <p><i>U qoldiqlarni o'rgandi.</i></p>
5.	A
6.	B
7.	D
	Gideon Mantell tish turli xil hayvonlarga tegishli bo'lishi

mumkin deb o‘yladi. Bunday fikrga kelishga uni nima majbur qilganini ko‘rsatuvchi quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Hayvon turi	Nima uchun bunday fikrga keldi
O‘txo‘r hayvonlar	Tishi tekis va qirrali edi
Bahaybat hayvonlar	
Sudralib yuruvchilar	

**Maqsad:** Ma’lumotni o‘zlashtirish va undan foydalanish.

**Jarayon:** Fikrlar va ma’lumotlarni talqin qilish va umumlash-tirish.

8. \*Eslatma: Bu vazifaning har bir qismi alohida baholanadi.

Hayvon turi	Nima uchun bunday fikrga keldi
O‘txo‘r hayvonlar	Tishi tekis va qirrali edi
Bahaybat hayvonlar	Toshga aylangan tish yirik hajmda edi.
Sudralib yuruvchilar	1. Ulkan tishga yopishib qolgan tosh bo‘lakchalarining tarkibi, odatda, sudraluvchilarning toshga aylangan suyaklari tarkibiga o‘xshar edi.  Toshga aylangan tish iguananing tishiga o‘xshar edi; sudralib yuruvchilarning tishiga o‘xshar edi.

9. C

Olim Gideon Mantelga bir iguana tishini ko‘rsatdi. Nima uchun Gideon Mantelga bu juda ham muhim edi?

10. **Maqsad:** Ma’lumotni o‘zlashtirish va undan foydalanish.

**Jarayon:** Fikr va axborotni talqin etish va integratsiya qilish.

**Javob qabul qilinadi:** Javob iguananing tishi ulkan sudralib yuruvchiga tegishli bo‘lgan toshga aylangan tish ekanligi haqidagi

Gideon Mantelning nazariyasini tasdiqlaydi.

**Masalan:**

*Iguananing tishi toshga aylangan suyak qoldiqlari sudralib yuruv-chiniki bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi.*

*Bu unga tish qanday turdagi hayvonga tegishli bo'lganligini bilishga yordam berdi.*

*Tish uning haqligini isbotladi.*

*Bu uning har doim o'ylab yurgan narsasini isbotladi.*

Yoki javob iguana tishi qoldiq tishga o'xshagan bo'lgan degan umumiy tushunchani ifodalaydi.

**Masalan:**

*Iguana tishi toshga aylangan tishga o'xshardi.*

*U ko'p yillar davomida unga o'xshash tishni qidirgan.*

*U tekis va qirrali edi.*

**Javob qabul qilinmaydi:** Javob iguana tishining ahamiyatli tushunchasini ko'rsatmaydi.

**Masalan:**

*U mashhur bo'lishni xohlagan edi.*

*U iguananing tishini ko'rish qiziqarli bo'ladi deb o'ylagan.*

11. A

Iguanodonning ikkita tasviriga qarang. Ular sizga nimani tushu-nishingizga yordam beradi?

**Maqsad:** Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish.

**Jarayon:** Matn tili, tuzilishi va mazmunini baholash.

12. **To'liq tushunchaga ega bo'lish:** Rasmlar ilmiy g'oya-lardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi yoki rasmlar Iguanodon haqida odamlarning fikrlari turli xilligini ifodalaydi.

**Masalan:**

*Bugungi kunda olimlar Gideon Mantell tasvirlaganidan boshqa-charoq bo'lgan degan fikrda ekanligini.*

*Iguanodonning ko‘rinishi haqidagi odamlar tasavvurining o‘zgar-ganligini.*

*Iguanodon ko‘rinishi haqidagi har xil odamlarning fikrlari turlicha-ligini.*

*Gideon Mantelning o‘ylashicha, suyaklar Iguanodon to‘rt panjada yurganini ko‘rsatadi, biroq hozirgi olimlar boshqacha fikrlashini.*

*Ular menga Iguanodon ayrim paytlarda ikki panjada yurganligi haqidagi hozirgi olimlarning fikrlarini va Gideon Mantelning tasavvurlarini tushunishimga yordam beradi.*

*Yoki javobda Gideon Mantell va boshqa odamlar yo‘l qo‘ygan xatolar tasvirlarda ifodalanganligi keltiriladi.*

**Masalan:**

*Gideon biroz xato qilganligini ko‘rsatishga.*

*Odamlar ba‘zan xatoga yo‘l qo‘yishlari mumkinligiga.*

**Umumiy tushunchaga ega bo‘lish:**

**Masalan:**

*Ular turli xil ko‘rinishga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

*Yoki ilmiy g‘oyalardagi o‘zgarishlarni va turli odamlarning fikrlarini inobatga olmagan holda ikkita rasm o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi.*

**Masalan:**

*Biri to‘rt oyoqli, boshqasi ikki oyoqlidir.*

*Gideon uning shoxi bo‘lgan deb o‘ylagan.*

**Javob qabul qilinmaydi:** *Javobda bu ikkita tasvir nima bilan yordam berishi ko‘rsatilmaydi.*

**Masalan:**

*Ular qanday ko‘rinishga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

*Ular yillar o‘tib Iguanodon qanday o‘zgarganligini tushunishga yordam beradi.*

*Ular o‘txo‘r ekanligini ko‘rsatadi.*



*Ularning to'rtta panjasi bo'lgan.*

Keyingi topilmalar shuni isbotlaydiki, Gideon Mantell Iguanodonning ko'rinishi haqida xatoga yo'l qo'ydi. Jadvaldagi bo'sh joylarni to'ldiring.

13.

<b>Gideon Mantelning fikricha, Iguanodon qanday ko'rinishga ega bo'lgan?</b>	<b>Bugungi kun olimlarining fikricha, Iguanodon qanday ko'rinishga ega bo'lgan?</b>
Iguanodon to'rt panjada yurgan	
	Iguanodonning «bosh barmog'i»da uchli bo'rtiq bo'lgan
Iguanodon o'ttiz metr (100 fut uzunlikda) bo'lgan	

**Maqsad:** Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish.

**Jarayon:** Ma'lumotlarni umumlashtirish va talqin qilish.

**\*Eslatma:** Bu vazifaning har bir qismi alohida baholanadi.

<p><b>Gideon Mantelning fikricha, Iguanodon qanday ko‘rinishga ega bo‘lgan?</b></p>	<p><b>Bugungi kun olimlarining fikricha, Iguanodon qanday ko‘rinishga ega bo‘lgan?</b></p>
<p><b>Iguanodon to‘rt panjada yurgan</b></p>	<p>Iguanodon ba‘zan ikki panjada/orqa panjada yurgan, ikki panjada/orqa panjada turgan</p>
<p>Iguanodonning boshida/burnida/yuzida shoxi bo‘lgan. Yoki boshida uchli bo‘rtiq bo‘lgan.</p>	<p><b>Iguanodonning «bosh barmog‘i»da uchli bo‘rtiq bo‘lgan</b></p>
<p><b>Iguanodon o‘ttiz metr (100 fut uzunlikda) bo‘lgan</b></p>	<p><b>Iguanodonning uzunligi to‘qqiz metr bo‘lgan</b></p>
<p>14.</p>	<p>D</p>

## Foydalanilgan va tavsiya qilinadigan adabiyotlar hamda elektron resurslar

1. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. [www.timssandpirls.bc.edu](http://www.timssandpirls.bc.edu).

2. PIRLS 2011 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Ann M. Kennedy, Kathleen L. Trong, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Boston College Chestnut Hill. 2009.

3. Framework and Specifications for PIRLS Assessment 2001. Jay R. Campbell, Dana L. Kelly, Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Chestnut Hill. 2001.

4. PIRLS 2016 Teacher Questionnaire. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2015.

5. PIRLS 2011 Assessment. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) 2013, TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College, Chestnut Hill.

6. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS. Основная информация об исследовании PIRLS. Институт стратегии развития образования Российской академии образования, Центр оценки качества образования. [www.centeroko.ru](http://www.centeroko.ru).

7. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2016. Институт стратегии развития образования Российской академии образования, Центр оценки качества образования. Тетрадь 13.

8. Оценка качества чтения и понимания текста учащимися на-

чальной школы PIRLS. Министерство образования и науки Республики Казахстан, Национальный центр образовательной статистики и оценки. Методическое пособие. – Астана: НЦОСО, 2013.

9. ОТВЕТЫ К ЗАДАНИЯМ И КРИТЕРИИ ОЦЕНИВАНИЯ ЗАДАНИЙ ИССЛЕДОВАНИЯ PIRLS-2006. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования, Центр оценки качества образования. [www.centeroko.ru](http://www.centeroko.ru).

10. ОТВЕТЫ К ЗАДАНИЯМ И КРИТЕРИИ ОЦЕНИВАНИЯ ЗАДАНИЙ ИССЛЕДОВАНИЯ PIRLS-2001. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования Центр оценки качества образования. [www.centeroko.ru](http://www.centeroko.ru).

11. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2001. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования Центр оценки качества образования. Тетрадь 1.

12. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2001. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования Центр оценки качества образования. Тетрадь 2.

13. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2006. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования Центр оценки качества образования. Тетрадь 4.

14. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2011. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования Центр оценки качества образования. Тетрадь 5.

15. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2011. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования Центр оценки качества образования. Тетрадь 6.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti: [www.tdi.uz](http://www.tdi.uz).

17. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti: [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH  
DAVLAT INSPEKSIYASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

TA’LIM SIFATINI BAHOLASH BO‘YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI  
AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

## **XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH**

*(Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va  
soha mutaxassisleri uchun metodik qo‘llanma)*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2019

Muharrir *Dilfuza Toshkenboyeva*  
Badiiy muharrir *Bahrom Bobojonov*  
Texnik muharrir *Diyora O‘tkurbekova*  
Musahhihlar *Sharofat Xurramova, Nigora Allaqulova*

*Ushbu qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan Jahon banki hamkorligidagi GPE TF018066 «Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirish» loyihasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.*

***Mazkur qo‘llanmani sotish va undan tijorat maqsadida foydalanish taqiqlanadi.***

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011**

Bosishga ruxsat etildi 23.12.2019.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$ . «PT Serif» garniturası. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog‘i 8,27. Nashriyot-hisob tabog‘i. 7,5.  
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma №772.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko‘chasi, 41**



ISBN 978-9943-5991-2-3



9 789943 599123